

S.BEGMATOV

MUSIQA

6-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 6-nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2017

Taqri zchilar:

Gulchehra DADABAYEVA – Respublika Ta’lim markazi “Musiq a, san’at, mehnat ta’limi, jismoniy kamolot va salomatlik” bo’limi bosh metodisti;

Vasila GAPPAROVA – Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 203-umumta’lim maktabining musiq a madaniyati fani o’qituvchisi;

Feruza AXMADEYEVA – Toshkent shahar Sirg’ali tumanidagi 284-umumta’lim maktabining musiq a madaniyati fani o’qituvchisi.

Begmatov, Soib.

Musiq a: 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6-nashri. – S.Begmatov. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 88 b.

Darslikdan unumli foydalanish uchun quyidagi shartli belgilarni eslab qoling:



– musiq a tinglash



– musiq a savodi



– jamoa bilan kuylash



– savol va topshiriqlar



– mustaqil o’qish



– ovoz sozlash mashqi

SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchilar! Tavsiya etilayotgan 6-sinf “Musika” darsligi Sizlarni musiqa ijodiyotining mumtoz olami bilan tanishtiradi. Mumtoz musiqa har tomonlama yetuk va mukammal bo‘lgan asarlarni o‘z ichiga oladi. Ular har bir avlod tomonidan qunt bilan o‘rganilgan va kelajak uchun munosib voris bo‘lishga da’vat etuvchi ijodiyotning ulkan manbasi bo‘lib kelgan.

Darslikdan xalq folklor va mumtoz musiqasi, Sharq xalqlari musiqasi, zamonaviy estrada musiqasi hamda mumtoz kompozitorlik musiqalari va ijodiyoti bo‘yicha tushunchalar olasiz.

Musiqani xalq yaratadi. Xalq bastakorlari va kompozitorlari esa xalqdan olib, qayta ishlab, mumtoz janrlar namunalarida yana xalqqa taqdim etadilar. Xalq musiqasi sodda va xalq hayotidagi voqeliklar bilan bog‘liqdir. Mumtoz klassik musiqa esa inson tafakkuri mevasi, ya’ni kompozitorlik ijodining mahsulidir. Zamonaviy musiqa – davr taraqqiyoti mezonida yuzaga keladigan yangidan-yangi namunalar, oqimlar va uslublar demakdir.

I chorakda mumtoz musiqa va ularning janr xususiyatlari haqida tushuncha berilgan. II chorakda zamonaviy musiqa mezonlari, ayniqsa, o‘zbek estrada musiqasiga ko‘proq e’tibor qaratilgan. III chorakda esa arab, turk, ozarbayjon, eron, xitoy, uyg‘ur, yapon, hind, qozoq, qirg‘iz, tojik kabi Sharq xalqlari musiqasi bilan yaqindan tanishasiz. IV chorakda jahon mumtoz musiqasiga ulkan hissa qo‘shgan V.Motsart, L.Betxoven, F.Shopen, M.Glinka kabi Yevropa kompozitorlarining mumtoz musiqa ijodiyotidan bahramand bo‘lasiz.

Mumtoz musiqa xalqlarning milliy an’analari bilan sug‘orilgan ma’naviy boyligi bo‘lib, ularni o‘rganish va rivojlantirish har bir inson kamoloti uchun zarurdir. O‘ylaymizki, darslikka kiritilgan mavzular barkamol avlod qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishga, umumbashariyat madaniyatini idrok-lashga, musiqiy merosni anglashga xizmat qiladi.

M u a l l i f

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so‘zi

Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi

Tantanavor *f*

1. Ser- qu- yosh, hur o‘l- kam, el-
ga baxt, na- jot, Sen o‘- zing do‘st- lar- ga yo‘l- dosh, meh- ri-
bon! Meh- ri- bon! Yash- na- gay to a- bad il-
mu fan, i- jod, Shuh- ra- ting por- la- sin to- ki bor ja-
hon! Ol- tin bu vo- diy- lar - jon O‘z- be- kis-
ton, Aj- dod- lar mar- do- na ru- hi sen- ga yor! U- lug‘
xalq qud- ra- ti jo‘sh ur- gan za- mon, O- lam- ni mah- li- yo ay- la-

1. gan di-yor! 2. Bag'-ri *f*

1. gan di-yor! 2. Bag'-ri

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
 Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
 Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
 Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
 Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
 Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
 Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
 Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
 Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
 Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
 Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
 Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
 Olamni mahliyo aylagan diyor!

I CHORAK

MUMTOZ MUSIQA HAQIDA TUSHUNCHA

1-Mavzu: MUMTOZ MUSIQA

“Mumtoz musiqa” mohir sozanda, xonanda hamda bastakorlar ijodining eng nodir namunasi bo‘lgan maqomlar, yirik shakldagi murakkab kuy va ashulalarni o‘z ichiga oladi. Amaliyotda u “mumtoz musiqa” yoki “kasbiy musiqa” deb ham yuritiladi. Demak, mumtoz musiqa xalq ijodiyotining professional yo‘nalishiga xos bo‘lgan eng sara musiqiy namunalaridir. Ushbu yo‘nalishga xos bo‘lgan asarlar iste’dodli bastakorlar tomonidan yaratilgan hamda yuksak malakaga ega bo‘lgan xonanda va sozandalar tomonidan ijro etib kelingan. Ularning mazmuni murakkab va mukammaldir. Shu bois ularni ijro etish uchun katta san’atkorlik tajribasi, mahorat, malaka va musiqiy savodxonlik kerak bo‘ladi. Qadimdan mumtoz musiqa yoshlarga ustozlar tomonidan o‘rgatib kelingan. Ushbu ustoz-shogirdlik an’anasi hozirgacha davom etib kelmoqda.

Mumtoz musiqa yirik shakldagi kuy va ashulalardan tarkib topgan. Ular mazmunan va shaklan rang-barangdir. Ma’lumki, bizning diyorumiz sheva nuqtayi nazaridan 4 ta katta vohaga bo‘linadi. Bular: Buxoro – Samarqand, Xorazm, Surxondaryo – Qashqadaryo va Farg‘ona – Toshkent vohalaridir. Sheva nafaqat tilda, balki musiqiy ohanglarda ham o‘z aksini topadi.

Qadrli o‘quvchilar! Mumtoz musiqa merosimiz kelajakda yaratiladigan barcha musiqiy asarlar uchun ohang-kuylar xazinasi. Bu chorakda Siz musiqamizning mumtoz turlari va vohaviy xususiyatlari haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lasiz.



Mumtoz musiqa asarlaridan namunalar tinglang.



“O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” A.Oripov she’ri, M.Burhonov musiqasi

2/4 o‘lchovida ritmik tuzulmalarni kuylang.




- ?! 1. Mumtoz musiqa haqida so‘zlab bering.
•• 2. Qanday musiqiy namunalarga mumtoz musiqa deyiladi?
3. Mumtoz musiqa kimlar tomonidan yaratiladi va ijro etiladi?
4. O‘zbekistondagi qaysi vohalarni bilasiz va ularning mumtoz musiqaga ta’siri qanday?
5. Mumtoz musiqani ijro etish uchun qanday malakalarga ega bo‘lish lozim?

2-Mavzu: MUMTOZ KUYLAR

Mumtoz musiqa tarkibi ikki xil shaklga ega bo‘ladi. Ulardan biri cholg‘u musiqasi bo‘lsa, ikkinchisi, ashula yo‘lidir. Cholg‘u musiqasi tarkibi eng sodda xalq kuylaridan tortib to murakkab maqom namunalarigacha bo‘lgan asarlarni o‘z ichiga oladi. Shularning orasida maqom cholg‘u yo‘llari bilan birga juda ko‘p an’anaviy mumtoz asarlar ham bor. Mumtoz kuylarni o‘zbek bastakorlari turli davrlarda yaratganlar.

Mumtoz kuylar azaldan o‘zbek xalq cholg‘ulari – tanbur, dutor, g‘ijjak, nay, chang va surnay kabi sozlarda ijro etib kelingan. Eng ommabop cholg‘ularimizdan yana biri doiradir. Amaliyotda aksariyat mumtoz kuylar yakka cholg‘ularda hamda jo‘rnavozlikda ijro etib kelinmoqda. Biz sevib tinglaydigan mumtoz kuylar juda ko‘p. Ularga “Hojiniyoz I–II”, “Cho‘li Iroq”, “Mirzadavlat”, “Munojot”, “Savti Munojot”, “Ufori Munojot”, “Ilg‘or”, “Rohat”, “Rajabiy”, “Sharob I–II”, “Aliqambar”, “Qo‘shchinar”, “Navro‘zi Ajam” kabi kuylarni misol qilish mumkin. Shulardan bolalarga mo‘ljallanganlari “Dilxiroj”, “Jonon”, “Lazgi” kabi kuylardir.





Zamonaviy cholgʻuchilar ansambli

Mumtoz cholgʻu kuylari maʼnaviy ozuqa sifatida insonlarga huzur baxsh etadi.

Xalqimiz orasidan mumtoz kuylar yaratgan va ularni ijro etgan koʻplab mashhurlar yetishib chiqqan. Usta Olim Komilov, Yunus Rajabiy, Toʻxtasin Jalilov, Saidjon Kalonov, Gʻanijon Toshmatov, Faxriddin Sodiqov, Muhammadjon Mirzayev, Turgʻun Alimatov, Ahmadjon Odilov, Ab-Rasulov, Qahramon Dadayev va boshqalar shular jumlasidandir.

● “Choʻli Iroq”, “Qoʻshyor”, “Rohat”, “Jonon” kuylarini tinglang.

🎵 Quyidagi kuyni notaga qarab kuylang.





BOLALAR

Jumaniyoz Jabborov she'ri

Habibulla Rahimov musiqasi

Tez



Xud-di bog'-lar gul -che-cha-gi Qir- lar- da- yo



lo- la- lar, O'z-be-kis-ton ke- la- ja- gi - Bo- la-



lar, bo- la- lar, bo- la- lar! Biz quvnoqimiz,



sho'x,er-ka-miz Yo tog'- dan sha- lo- la- lar,



Va-tan-ga por- loq er- ta-miz, Bo- la- lar, bo- la- lar,



bo- la- lar... Bo- la-



lar, bo- la- lar!

Xuddi bog‘lar gul-chechagi,
Qirlarda yo lolalar,
O‘zbekiston kelajagi –
Bolalar, bolalar, bolalar!

Sevinch bo‘lib yog‘dik dilga,
Misli shabnam jalalar,
Biz iftixor, quvonch elga,
Bolalar, bolalar, bolalar!

Biz quvnoqmiz, sho‘x, erkamiz
Yo tog‘dan shalolalar,
Vatanga porloq ertamiz,
Bolalar, bolalar, bolalar!

Boshingizdan quyosh sochdi,
Mangu zarrin tolalar,
Iqbol bizga bag‘rin ochdi,
Bolalar, bolalar, bolalar!

- ?! 1. Mumtoz kuylar deganda qanday asarlarni tushunasiz?
•• 2. Mumtoz kuylar qaysi cholg‘u sozlarida ijro etiladi?
3. Siz qanday kuylarning nomini bilasiz?
4. Bolalarga xos qanday mumtoz kuylar bor?
5. “Jonon” kuyini eslab, kuylab bering.
6. “Bolalar” qo‘shig‘ining mualliflari kimlar? Qo‘shiqni birgalikda kuylang.

3-Mavzu: **MUMTOZ ASHULA**


Ashula – bu qo‘shiqqa nisbatan rivojlangan, shakl jihatidan kattaroq bo‘lgan avjli asar. Ashulaning so‘z matnlari ham asosan g‘azal janriga mansub bo‘ladi. Bunday xususiyatlarga ega bo‘lgan asarlar, odatda, “mumtoz ashula” yoki “xalq ashulasi” deb yuritiladi. Mumtoz ashulalar ham xalq ichidan chiqqan mohir sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan yaratilgan. Mumtoz ashulalar o‘zining salobatlilikigi, keng qamrovliligigi va purma’noligigi bilan ajralib turadi. Ularning turlari, shakllari juda ko‘p.

Mumtoz ashulalar xalq orasida keng ommalashgan. Ularga “Ushshoq”, “Feruz”, “Bayot”, “Suvora”, “Chorgoh”larni kiritish mumkin. Xalqqa yoqqan ashula tezda ommalashadi va uning namunasi ham ko‘payadi. Xususan, “Ushshoq”ning bir qancha turi bor. “Samarqand ushshog‘i”, “Qo‘qon ushshog‘i”, “Toshkent ushshog‘i”, “Sodirxon ushshog‘i” va boshqalar. “Guluzorim”, “Dilxiroj”, “Ey sabo”, “Ko‘cha bog‘i I–II”, “Abdurahmonbegi”, “Aylagach”, “Fig‘on”, “Sensan sevarim”, “Munojot”, “Tanavor” kabi ashulalar esa xalq orasida mashhur bo‘lib ketgan.

GULUZORIM

M.M. ♩ = 112

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi



Do'st-la- rim (ay), bir no- za- nin (o)
ish- qi bu hol et-mish me-ni,
zul-f(i) sav- - - do- si (ya) a- lif
qad- dim- ni dol - (do-da) et-mish me-ni.



Mumtoz ashula ijrosi.
Xalq hofizi Mahmudjon
Tojiboyev

Mumtoz ashulalar mumtoz adabiyot namoyandalari – Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Xorazmiy, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Charxiy kabi shoirlarning lirik yoʻnalishda yaratilgan gʻazal va sheʼrlariga bastalangan.


Mumtoz ashulalar yakka yoki joʻrnavorlikda ijro etiladi. Xonandalar esa sozandalar ansambli joʻrligida yoki oʻzlarining sozlari bilan ham ashula aytadilar. Mumtoz ashula ijro etishda koʻproq tanbur, dutor, gʻijjak, doira cholgʻularidan tuzilgan dastalardan foydalaniladi.

Mumtoz ashula ijrochilarini biz “hofiz” deb ataymiz. Biz ustoz xonandalardan Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Orifxon Hotamov, Ochilxon Otaxonov, Hasan Rajabiy,

Oʻlmas Saidjonov, Munojot Yoʻlchiyeva, Mahmudjon Tojiboyev, Mashrab Ermatovlarni hurmat bilan tilga olamiz.

- “Ushshoq”, “Soqiynomai Savti Kalon” va “Guluzorim” (Hoji Abdulaziz Abdurasulov) ashulalaridan birini tinglang.

🎵 Quyidagi kuyga dirijorlik qilib, notalarini aniq, ravon va sof tovush bilan kuylang.



- ?!
1. Ashula qanday janr?
 - 2. Mumtoz ashulalardan qaysilarini bilasiz?
 3. Mumtoz ashula qanday shoirlarning soʻzlari bilan aytiladi va ulardan kimlarni bilasiz?
 4. Mumtoz ashula ijrochilari haqida gapirib bering.

4-Mavzu: SHASHMAQOM – MUMTOZ MUSIQAMIZ ASOSI

Shashmaqom – oʻzbek va tojik xalqlarining mumtoz musiqasi hisoblanadi. Shashmaqom Buxoroda XVIII asrga kelib toʻla shakllangan. Uning tarkibida 250 dan ortiq yirik shakldagi kuy va ashulalar mavjud. Shashmaqom – olti maqom deganidir. Ular “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh” va “Iroq” deb nomlanadi.

Shashmaqomni maxsus bilimga ega boʻlgan sozanda va xonandalar ijro etishadi. Ularni biz “maqomchilar” deb ataymiz. Azaldan Shashmaqomni ijro etadigan maxsus ansambllar faoliyat koʻrsatib kelgan. Bunday ansambllarga Toshkentda “Badiiy jamoalar direksiyasi” tarkibida faoliyat olib borayotgan Yunus Rajabiy nomidagi “Maqomchilar”, Buxoro, Xorazm, Samarqand, Andijon va Fargʻona viloyatlaridagi maqomchilar ansambllari misol boʻla oladi.

TASNIFI BUZRUK

Buzruk maqomidan



“Shashmaqom” tarkibidagi asarlardan tinglang (masalan, Buzruk maqomidan “Tasnifi Buzruk” va h.k.).



Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli.
Badiiy rahbar Abduhoshim Ismoilov



TOSHKENT

Usmon Qo'chqor she'ri

Xurshida Hasanova musiqasi

Tez



Jon - dek la - ziz sha- har - san,



A - ziz sha - har - san. O - si - yo os - mo-

- ni - da, Yul - duz sha - har - san.

Ey, qu-yosh shah- rim, O' - zing bosh shah - rim,

Gul - la - gan ma-kon,

Jo - nim Tosh- ken-tim - san. Top - gil

sha-raf - shon, Os - mo - nim Tosh -kent - san.

Bir dam ko'r - ma- sam O - nam dek

qo'm - sar - man.

O' - zing sha - ra - fim Tosh-ken- tim- san.

1 Jondek laziz shaharsan,
Aziz shaharsan.
Osiyo osmonida,
Yulduz shaharsan.

Ey quyosh shahrim,
O‘zing bosh shahrim.

N a q a r o t:
Gullagan makon,
Jonim Toshkentimsan.
Topgil sharaf-shon,
Osmonim Toshkentsan.

2 Moziydan bir xotirsan,
Yosh bahodirsan.
Hur elda o‘zing mangu,
Gullab yotursan.

Ey quyosh shahrim,
O‘zing bosh shahrim.

N a q a r o t:
Gullagan makon,
Jonim Toshkentimsan.
Topgil sharaf-shon,
Osmonim Toshkentsan.



Berilgan kuyni turli ritmik shakllardan foydalangan holda kuylang.



- ?!
1. Shashmaqom nima?
 2. Shashmaqomning tarkibiy qismlarini bilasizmi?
 3. Shashmaqom qayerda va qachon shakllangan?
 4. Maqom ansambllari haqida gapirib bering.
 5. “Tasnifi Buzruk”dan namuna kuylab bering.

5-Mavzu: **FARG‘ONA – TOSHKENT MUMTOZ MUSIQASI.**
KATTA ASHULA

O‘zbekistonda har bir vohaning o‘ziga xos musiqiy an‘analari mavjud. Farg‘ona – Toshkent vohasining mumtoz musiqasi shu yerda yashaydigan xalqlarning turmush tarzi, mashg‘uloti va etnik hayoti asosida vujudga kelgan. Ushbu voha mumtoz musiqasiga maqom yo‘llarida yaratilgan asarlar kiradi. Bular: “Bayot I–V”, “Gulyor-Shahnoz I–V”, “Dugoh Husayniy I–VII”, “Chorgoh I–V”lar. Shu bilan birga, vohaga xos bo‘lgan cholg‘u turkumlari, surnay yo‘llari va ayniqsa, katta ashula janri alohida e‘tiborga loyiqdir.

DUGOH HUSAYNIY TARONASI

M.M. ♩ = 92 Xalq musiqasi

Kel-sang a-gar kul-bam a-ro bosh us-ti-
na, bosh us-ti-na...

Fargʻona – Toshkent mumtoz musiqa namunalari orasida Shashmaqomga nisbatan soddaroq, xalq ashulalari, katta ashular va qoʻshiq janrlarining taʼsirida yaratilgan juda koʻp asarlar mavjud.

Bu vohaning mumtoz musiqasiga serjilolik, kuychanlik, joziba va shu bilan birga erkinlik xosdir. Shu bois bu vohadan ijrochilik yoʻllariga ega boʻlgan sozanda va xonandalar koʻp chiqqan. Jumladan, Mamatbuva Sattorov, Joʻraxon Sultonov, Maʼmurjon Uzoqov, Gʻanijon Toshmatov, Faxriddin Sodiqov kabi ustoz sanʼatkorlarni tilga olishimiz mumkin.

KATTA ASHULA – Fargʻona vodiysining mahalliy uslubiga xos vokal janrlardan biridir. Xalq orasida patnisaki ashula deb ham yuritiladi. Katta ashula, odatda, cholgʻu asboblarsiz ikki-uch xonandalar tomonidan ijro etiladi. Katta ashulaning kuy tuzilishi va ijrosi murakkab shaklda boʻlganligi uchun malakali mohir ashulachilar ijro etadilar. Shu bois ularni xalqimiz katta ashulachilar deb atashadi.

Katta ashulani ijro etish uchun ashulachida juda katta diapazonli, baquvvat, chiroyli ovoz boʻlishi kerak. Ijrochilik sirlarini ustozlardan oʻrganish talab qilinadi. Chunki katta ashula keng koʻlamli ohangi, usul jihatidan erkinligi, faqat Fargʻona vodiysiga xosligi bilan ajralib turadi. Ijro paytida katta ashulachilar navbat bilan birin-ketin ijro etadilar. Kuy jumllarining yakunini esa hamnafaslikda, birgalikda ijro etadilar. Katta ashulachilar qoʻllariga likopcha ushlab oladilar. Bu ashula aytishga qulay boʻlishi uchun xizmat qiladi. Hamroqul Qori, Mamatbobo Sattorov, Joʻraxon Sultonov, Maʼmurjon Uzoqov, Odiljon Yusupov kabilar mashhur katta ashulachilardandir.



“Bayot I”, “Mushkiloti Dugoh” va “Nasrulloi I” asarlarini va katta ashulalardan birini tinglang.



“Toshkent” U. Qo‘chqor she‘ri, X. Hasanova musiqasi.



Berilgan kuyning nomini aniqlab, notaga qarab kuylang va davom ettiring.



1. Farg‘ona – Toshkent vohasi qanday mumtoz musiqaga ega? Nomlarini sanab o‘ting.
2. Vohaning ustoz san’atkorlaridan va katta ashula ijrochilaridan kimlarni bilasiz?
3. “Dugoh Xusayniy taronasi” asaridan namuna kuylab bering.
4. Katta ashula qanday janr va Respublikamizning qaysi vohasiga xos?
5. Katta ashula janrining xususiyatlarini aytib bering.

6-Mavzu: XORAZM VOHASINING MUMTOZ MUSIQASI

Xorazm eng qadimiy madaniyatga ega bo‘lgan, o‘zining madaniyati va san’ati bilan O‘rta Osiyo madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan vohalardan biri.

Xorazm mumtoz musiqasi janrlarga boy. Chunonchi, maqom, maqom yo‘llarida yaratilgan mumtoz kuy va ashula hamda o‘ziga xos doston ijrochiligi san’atlariga ega. Xorazm maqomlari “Rost”, “Buzruk”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” va “Panjgoh” (to‘liq bo‘lmagan qism)lardan iborat. Umuman, ular “Olti yarim maqom” deb yuritiladi.

Xorazm maqomlaridan tashqari, bu vohaga xos bo‘lgan “Suvora”, “Naqsh”, “Faryod” kabi mumtoz kuy va ashulalar ham bor. Bular aynan Xorazm mumtoz musiqasining namunalaridir. Ularning ijro uslublarida o‘ziga xoslik mavjud. Ular cholg‘u va ashula ijrochiligida yaqqol seziladi. XIX asrda esa Xorazm maqomlari “Xorazm tanbur chizig‘i” asosida notaga olingan.



Xorazm vohasi xonanda va sozandalar ansambli


Xorazm mumtoz musiqasining yana bir turi – bu doston ijrochiligidir. Chunki bu vohada dostonlar ham ashula uslubida ijro etiladi. Doston ijrochilari xalq orasida baxshi nomi bilan yuritiladi (jumladan, Bolabaxshi).

Xorazm vohasi mumtoz musiqa ijrochiligiga xos cholg'ular quyidagilardir: tor, g'ijjak, qo'shnay, tanbur, dutor, surnay (bulaman, garmon) va doira.


Xorazm mumtoz musiqasining ustozlari Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozovlardir.

● “Suvora” va “Feruz I” asarlarini tinglang.

ALIQAMBAR





 Xorazm dostonchilik san'ati ijrochilik yo'llari.

Xorazm vohasi dostonchilik san'ati, xalq orasida keng ommalashgan janr hisoblanadi. Vohaga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ushbu janr o'ziga xos ijrochilik an'analari bilan boshqa vohalardan ajralib turadi. Xorazm doston ijrochiligining o'ziga xos ijrochilik an'analari ochiq ovoz bilan kuylanadi. Odatga ko'ra, nasriy matn hikoya tarzida o'qiladi. Bunda baxshi tinglovchilarni jalb etish bilan birga voqeani tushuntirib o'tadi, so'ngra dostonning she'riy matnini qo'shiq qilib kuylaydi. Xorazm vohasida azaldan dostonlarni dutor cholg'usi yordamida ijro etib kelingan. Keyingi paytlarda doston ijrochiligi juda rivojlanib ketdi. Uning ijrochilik yo'llari ham ko'paydi. Natijada ijrochi baxshilar amaliyotida, tor cholg'usi va sozandalar ansambli jo'rligida ijro etish keng ommalashdi. Xorazm vohasi doston ijrochiligida mashhur baxshilar ko'p. Ularning orasida Bolabaxshi nomi bilan xalq orasida mashhur bo'lgan san'atkor – Qurbonnazar Abdullayevdir.

- ?!
1. Xorazm vohasi madaniyati haqida nimalar bilasiz?
 - 2. Xorazm mumtoz musiqasi namunalari xususida gapirib bering.
 3. Qaysi Xorazm maqomlarini bilasiz?
 4. Xorazm dostonchilik san'atini aytib bering.
 5. "Aliqambar" kuyidan namuna kuylab bering.

7-Mavzu: **SURXONDARYO – QASHQADARYO**
MUMTOZ MUSIQASI



Surxondaryo va Qashqadaryo vohasi o'zining mahalliy urf-odatları va an'analari bilan alohida ajralib turadi. Ularning mumtoz musiqasi asosan dostonchilik bilan bog'liqdir. Doston ijrochilik an'anasida esa adabiy-nasriy va musiqiy xislatlar mujassamlashgan.

Doston ijrochiligining o'ziga xosligi – ularning ovoz ishlatishida (tomoqda kuylaydi) va do'mbira cholg'usida jo'r bo'lishidir. Shu bois, bu voha ko'proq dostonchilik san'ati bilan mashhur. Doston ijrochilari xalq orasida dostonchi, baxshi, shoir deb ataladi. Dostonlarning qo'shiq qilib aytiladigan qismi esa “noma” deyiladi.

Bu vohada eng ko'p tarqalgan dostonlardan “Alpomish”, “Sohibqiron”, “Avazxon”, “Iskandarnoma”, “Go'ro'g'li”, “Oshiq G'arib va Shohsanam” va boshqalar. Ular tarixiy bahodirlik va ishqiy dostonlar hisoblanadi.



TAMOSHOSINI

“Oshiq G'arib va Shohsanam” dostonidan

M.M. ♩ = 60

Kel, G'a-ri-bim,

gasht e-tay-lik bu bog'-da (yo), Bul-bul ko'r-sin
gul-ning ta-mo-sho- si-ni...

⊙ “Alpomish” dostonidan namunalar tinglang.

Bo-qi qo-qi-ni So-qi-ga sot-di, So-qi qo-qi-ni Bo-qi-ga sot-di




MUNAJJIM BOBOM

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Tezroq

Os-mon-lar-da nur ko'zlarin-giz, Cha-raq-lay-di
yul-duz-la-rin-giz. Os-mon-lar-da nur ko'z-la-rin-giz,
Cha-raq-lay-di yul-duz-la-rin-giz. A- mir Te-mur ru-
hi bo'-lib yor, Yash-na-moq-da bu o- zod di-yor.



Sa-mar- qand- da, Sa-mar- qand- da bor- day-siz mu-dom,
 Ey mu-naj- jim, Ey mu-naj- jim, U-lug'- bek bobom,
 U- lug'- bek bo- bom.

Osmonlarda nur ko‘zlarinigiz,
 Charaqlaydi yulduzlarinigiz.

N a q a r o t :

Amir Temur ruhi bo‘lib yor,
 Yashnamoqda bu ozod diyor.

Samarqandda bordaysiz mudom,
 Ey munajjim, Ulug‘bek bobom.

Fan ko‘ksida yashaysiz hamon,
 Ardoqlagay jahon-u zamon.

N a q a r o t :

O‘chmagaydir hech izlarinigiz,
 Biz yerdagi yulduzlarinigiz.

Samarqandda bordaysiz mudom,
 Ey munajjim, Ulug‘bek bobom.

 Surxondaryo – Qashqadaryo doston ijrochilik uslublari.

Surxondaryo – Qashqadaryo doston ijrochilik uslublari o‘ziga xos. Ushbu voha doston ijrochilarini yo‘nalishlariga qarab xalq orasida yuzboshi (Sherobod), shoir (Qashqadaryo) va baxshi deb yuritadilar. Bu vohaning ijrochilik uslubi o‘ziga xos bo‘lib asosan ijrochilar tomog‘ini qirib, ichki ovozda (bo‘g‘iq ovoz deb ham atash mumkin) kuylaydilar. Odatda ular o‘zlariga yakka do‘mbira cholg‘usida jo‘r bo‘ladilar. Xalqimiz orasida ushbu voha doston ijrochiligi bo‘yicha “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish” kabi dostonlarni kuylab dong taratgan baxshilar ko‘p. Shoberdi baxshi, Abdunazar Poyonov kabi doston ijrochilari shular jumlasidandir. Surxondaryo – Qashqadaryo dostonchilik ijro amaliyotida do‘mbira cholg‘usida kuylar ijro etish ham an‘anaga aylangan. Ularni odatda cho‘pon kuy, do‘mbira kuy yoki baxshi kuy deb yuritadilar.

- ?! 1. Surxondaryo – Qashqadaryo mumtoz musiqasi janrlari xususida so‘zlab bering.
2. Qanday dostonlarni bilasiz?
3. Shoir-baxshilarning nomlarini aytib bering.

8-Mavzu: **MUMTOZ MUSIQANING MADANIYATIMIZDAGI O‘RNI**



O‘zbekiston xalq artisti
Zamira Suyunova

Musiqqa madaniyati xalqlar orasidagi yaqinlikni, do‘stlikni mustahkamlaydigan omil. Ma’naviyati buyuk bo‘lgan xalqning kelajagi ham buyukdir. Ma’naviyati boy bo‘lgan xalqimizning mumtoz musiqqa merosi beqiyos ekanligiga o‘tgan darslar davomida guvoh bo‘lindi. Mumtoz musiqqa xalqimizning ustoz sozanda, xonanda va bastakorlari tomonidan yaratilgan ma’naviy ozuqadir. Ularning mukammalligi, serko‘lamligi, salohiyatliligi va salobatlilikiga esa buyuklik nishonasidir.

Shu bois, har bir davr ijodkorlari o‘z xalqining o‘tmishiga tayansa, mumtoz musiqasini ardoqlasa va an‘analarini davom ettirsa, kelajak uchun munosib ish qilgan bo‘ladi. Har qanday zamonaviy ijod o‘tmish an‘analari bilan sug‘orilsa, u ijod namunasi millat faxriga aylanadi.

● *Xalq dostonlaridan namunalar tinglang.*

KLASSIK MUSIQA – muayyan shakl asosida yaratilgan musiqiy asarlarga aytiladi. O‘zbek xalq klassik musiqasi janrlariga maqomlar, maqom yo‘lida yaratilgan ashulalar va kuylar kiradi. Klassik musiqani o‘tmishda yashab ijod qilgan bastakorlar, sozanda va xonandalar yaratganlar. Klassik musiqqa janrlarining har biri o‘z shakliga ega.

Klassik musiqada o‘tmishda yashab o‘tgan klassik adabiyotimiz namoyandalari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Hofiz g‘azallaridan foydalanilgan.

Klassik musiqamiz – maqomlar juda katta diapazonga ega. Shuning uchun ularni ijro etuvchi xonandada juda keng va tarbiyalangan ovoz bo‘lishi kerak.

Oldinlari maqomlar og‘zaki an’anada ustoz-shogird qabilida o‘rganilib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Hozirgi davrga kelib klassik musiqa Respublikamiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘rgatiladi. Chunonchi, bolalar musiqa va san’at maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda Oliy ta’lim muassasalarida dars sifatida o‘tiladi.

- ?! 1. Mumtoz musiqa haqida nimalarni bilasiz?
•• 2. Mumtoz musiqaning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati qanday?
3. Zamonaviy ijodga mumtoz musiqa nima beradi?
4. Siz mumtoz musiqani qanday tasavvur etasiz?
5. Mumtoz musiqaning madaniyatimizga ta’sirini qanday izohlaysiz?

NAZORAT ISHI

1. Mumtoz musiqa nima?

- A) Yirik shakldagi murakkab kuy va ashula B) 4 qismli musiqiy janr
C) Bandli asar

2. Mumtoz musiqa yana qanday nom bilan yuritiladi?

- A) “Folklor” musiqasi B) “Kasbiy” musiqa
C) “Zamonaviy” musiqa

3. Mumtoz kuylar qaysi sozlarda ijro etiladi?

- A) Skripka, violonchel, fortepiano B) Doira, baraban, litavra
C) Tanbur, dutor, g‘ijjak, nay

4. Mumtoz ashula qanday bo‘ladi?

- A) 4 ta banddan iborat bo‘ladi B) Yirik simfonik asar
C) Katta avjli asar

5. Mumtoz ashula ijrochilarini biz qanday ataymiz?

- A) Baxshi B) Hofiz C) Shoir deb ataymiz

6. Shashmaqom qachon va qayerda to‘liq shakllangan?

- A) XVIII asrda Buxoroda B) XVI asrda Samarqandda
C) XVIII asrda Toshkentda

7. Shashmaqom qanday ma'noni anglatadi?

- A) Mumtoz qo'shiq B) Olti maqom
C) Olti kuy

8. "Patnisaki" ashula deb qanday ashulaga aytiladi?

- A) Katta ashula B) Naqarotli ashula C) Lirik ashula

9. Surxondaryo-Qashqadaryo an'anaviy cholg'ulari qaysilar?

- A) Tanbur, dutor surnay B) Do'mbira, qobuz, sibiziq, changqobuz
C) Avg'on rubobi, chang, g'ijjak

10. Katta ashula qaysi voqa musiqa uslubida uchraydi?

- A) Surxondaryo-Qashqadaryo B) Farg'ona –Toshkent
C) Buxoro-Samarqand

BOSHQOTIRMA

1	M						
2	U						
3	M						
4	T						
5	O						
6	Z						
7	M						
8	U						
9	S						
10	I						
11	Q						
12	A						

1. O'zbek mumtoz musiqasining eng mukammal janri.

2. Amaliyotda keng ommalashgan sho'x hamda 6/8 o'lchovi asosidagi usul nomi.

3. O'zbek xalq kuyiga bastakor I.Ikromov tomonidan so'z qo'yilgan taniqli xalq ashulasi.

4. Mumtoz musiqa ijrochiligida yetakchi cholg'u.

5. O'zbekiston Respublikasi madhiya matni muallifi.

6. O'zbek klassik shoirasi.

7. O'zbekiston Respublikasining musiqiy ramzi.

8. "Qaro ko'zim..." so'zlari bilan boshlanadigan mumtoz ashula.

9. Xorazmga xos mumtoz ashulalar nomi.

10. Shashmaqomning 6-maqomini nomi.

11. O'zbek xalq cholg'u kuyi.

12. O'zbek xalq dostoni.

II CHORAK

ZAMONAVIY MUSIQA VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

1-Mavzu: O‘ZBEK ZAMONAVIY MUSIQASI



Mashhur kompozitor va dirijor
Muxtor Ashrafiy

O‘zbek zamonaviy musiqasi deganda, hozirgi kunda ijro etilayotgan barcha musiqa turlarini tushunamiz. Ular janr nuqtayi nazaridan rang-barang bo‘lib, oddiy musiqiy namunalar hamda murakkab asarlarni o‘z ichiga oladi. Demak, bular o‘zbek xalq folklor musiqasi, maqomlar, an’anaviy bastakorlik va zamonaviy kompozitorlik ijodiga mansub musiqiy namunalardir. Zamonaviy o‘zbek musiqasi orasida kompozitorlik ijodi juda keng rivojlanib, xalq orasida ommalashdi. Ya’ni, jahon musiqa madaniyatidan joy olgan opera, balet, simfoniya, oratoriya, kantata, musiqali drama, syuita, poema janrlarida yetuk asarlar yaratildi. Qisqa davrda qator kompozitorlar elga tanildilar. Ular orasida Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Sobir Boboyev, Sulaymon Yudakov, Mutal Burhonov, Rustam Abdullayev, Mustafo Bafoyev, Sayfi Jalil, Avaz Mansurov, shuningdek, balet janri ijodkorlari – Aleksey Kozlovskiy, Ikrom Akbarov, Ulug‘bek Musayev, simfoniya va konsert asarlari mualliflari – Mirsodiq Tojiyev, To‘lqin Qurbonov, Mirxalil Mahmudov, Rashid Hamroyev, Georgiy Mushel, Nuriddin G‘iyosov, o‘z ijodlari bilan oratoriyadan tortib to estrada va bolalar qo‘shiqklarida zamonaviy talablarga mos ijod qilayotgan Shermat Yormatov, Nadim Norxo‘jayev, Alisher Rasulov, Alisher Ikromov, Dilorom Omonullayeva, Muhammad Otajonovlarni sanab o‘tish mumkin.

Shuni e'tiborga olish lozimki, "Zamonaviy musiqa" tushunchasi faqat ko'p ovozli musiqa janrlariga tegishli bo'lib qolmay, yangi avlodga mos yangicha yo'llar bilan rivojlanib borayotgan an'anaviy bastakorlik ijodiyotiga ham taalluqlidir.

⊙ *A. Mansurovning "Moziydan sado" poema – fontaziyasini tinglab, musiqiy filmni tomosha qiling.*



O'ZBEGIMDAN AYLANAY

Dilbar A'zamova she'ri

Gulnora Qo'chqorova musiqasi

O'rtacha tez

Qu-cho-g'ingda yay-rab o'-sar- man, yur- tim. Ta- ri-xing-dir
 bu-yuk, ey o- zod xal- qim. Ja- hon- ga yuz tut-ding, mag'rur-
 san, e- lim. O'z-be-gim-san, o'z-li-gim-san, o'z- be-
 gim! O'- zim ay- la- nay, o'-zim o'r- gi- lay.
 O'z- be- gim-san, o'z- li- gim-san, o'- zim ay- la- nay.
 O'- zim ay- la- nay, o'- zim o'r- gi- lay.



Yurt- bo-shim u- lug'- la- gan o'z- be- gim- san- ey.

Quchog'ingda yayrab o'sarman, yurtim,
Tarixingdir buyuk, ey ozod xalqim.
Jahonga yuz tutding, mag'rursan, elim,
O'zbekimsan, o'zligimsan, o'zbekim!


N a q a r o t :

O'zim aylanay, o'zim o'rgilay,
O'zbekimsan, o'zligimsan, o'zim aylanay.
O'zim aylanay, o'zim o'rgilay,
Yurtboshim ulug'lagan o'zbekimsan-ey!

Ajdodlarim ruhi bo'ldi madadkor,
Asrlar oshsa ham ular mangu yor.
To'maris, Uvaysiy, Nodirabegim,
Momolarim ulug'lagan o'zbekim.

N a q a r o t

Yurtimda balanddir mening iqbolim,
Madhingni kuylamoq orzu, xayolim.
Senga sodiq, komil ezgu tilagim,
Farzandlaring ulug'lagan o'zbekim.

 Quyidagi kuyni 3/4 o'lchovida dirijorlik qilib, notalarini aniq, ravon va sof tovush bilan kuylang:

O'rtacha tez



- ?! 1. Zamonaviy musiqa turlari haqida gapirib bering.
 2. Qanday janr va asarlar dunyoning barcha yerida birday qiziqish bilan qabul qilinadi?
 3. Zamonaviy ruhda asarlar yozgan qaysi kompozitorlarni bilasiz?
 4. Zamonaviy qo‘shiqalar yaratayotgan bolalar kompozitorlaridan kimlarni bilasiz?
 5. Qo‘shiqni o‘rtoqlaringiz bilan birgalikda kuylang.

2-Mavzu: ZAMONAVIY MUSIQA



Festivaldan lavha

Ma'lumki, har bir davr yoki zamon o'z taraqqiyot darajasi negizida o'zining ma'naviy dunyosiga ega bo'ladi. Jamiyatning ehtiyojiga xos talabi, didiga mos dunyoqarashlari zamonasiga mutanosib holda shakllanadi.

Istiqlolimiz tufayli shakllangan yangicha fikrlash, munosabatlar va dunyoqarashlar o'zimizga xos bo'lgan milliy istiqlol g'oyasiga asos soldi. Bu esa kelajagi buyuk davlatning ma'naviy barkamolligidan darakdir.

Bugungi kunning asosiy talablari – har bir sohada mustaqil bo'lish, milliy qadriyatlarimizni tiklash va jahon andazalari doirasida faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Buni biz musiqa san'atimizning tez rivoj topgani va ommaviy musiqiy shakllarning xalqimiz orasida keng tarqalganida ko'ramiz. Musiqamizda zamon ruhi bilan sug'orilgan umumbashariy musiqiy shakllar tobora rivojlanib bormoqda. Zamonaviy musiqamiz asl holini bugungi kunimizga xos holda, yangi dunyoviy janrlar bilan boyib borayotganini qayd etishimiz joiz.

⊙ *R.Abdullayev musiqasi va N.Narzullayev she'riga yozilgan "Mustaqillik lolalarimiz" qo'shig'ini tinglang.*



"O'zbekimdan aylanay" D. Azamova she'ri, G. Qo'chqorova musiqasi.

sof 1 kich 2 kat 2 kich 3 kat 3 sof 4

sof 5 kich 6 kat 6 kich 7 kat 7 sof 8

sof intervallar 1, 4, 5, 8. sifat intervallari 2, 3, 6, 7.

- ?! 1. Zamonaviy musiqa haqida gapirib bering.
- 2. Siz tinglagan “Mustaqillik lolalarimiz” qo‘shig‘ining mualliflari kimlar? Ularning yana qaysi asarlarini bilasiz?
3. “O‘zbekimdan aylanay” qo‘shig‘i qaysi ladda yozilgan?
4. “O‘zbekimdan aylanay” qo‘shig‘ini jonli, aniq talaffuz bilan yoddan kuylang.

3-4-Mavzu: FOLKLOR MUSIQASI VA DOSTONCHILIK SAN’ATI

Folklor musiqasini milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizning ohanglardagi ko‘rinishi desak bo‘ladi. Bu namunalar xalqimizning kundalik hayoti, mashg‘uloti va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularni asrash va kelajak avlodga to‘laqonli yetkazish maqsadida maxsus folklor ansambllari tashkil etish joriy etildi (1978-yilda ilk bor Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida “Gulyor” folklor ansambli tashkil etilgan. Ayni paytda esa, barcha viloyatlarda bunday ansambllar tashkil etilib, faoliyat ko‘rsatib kelmoqda).

Musiqa merosi tarkibidan joy olgan folklor namunalari orasida o‘zbek xalqining urf-odatlariga asoslangan marosim qo‘shiqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Odatda, ular o‘z xususiyati doirasida quyidagi turlarga bo‘linadi:

a) bolalar folklori: “Boychechak”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Chamanda gul”;

b) mehnat bilan bog‘liq qo‘shiqlar: “Mayda-mayda”, “Yozi”, “Xo‘sh-xo‘sh”, “Charxim”;

d) to‘y-marosimlari bilan bog‘liq qo‘shiqlar: “Yor-yor”, “Kelinsalom”, “To‘ylar muborak”;

e) diniy qo‘shiqlar: “Sadr”, “Zikr”, “Marsiya”;

f) afsuniy qo‘shiqlar yomg‘ir chaqirish maqsadida ijro etilgan: “Sust xotin” va oy-quyosh tutilganda aytiladigan qo‘shiqlar.

Shu bilan birga alla, lapar, terma, qo‘shiq janrlaridagi musiqiy namunalar ham o‘zbek folklor musiqasining asosiy janrlaridan hisoblanadi.

O‘zbek dostonchilik san’ati yirik janrlar qatoriga kirib, nasriy, she’riy va musiqiy xususiyatlarni o‘zida jamlagan adabiy-musiqiy kompozitsiya demakdir. Xalq ijodiyotida bahodirlik, qahramonlik, tarixiy va lirik dostonlar mavjud:



Bolalar folklor ansambli

1) Bahodirlik dostonlariga xalq orasidan chiqqan va bahodirlik bilan dong taratgan alplar hayotiga asoslangan “Alpomish”;

2) Qahramonlik dostoniga “Yusuf va Ahmad”, “Alibek va Bolibek”, “Sohibqiron”;

3) Tarixiy dostonlarga “Iskandarnoma”, “Shayboniyxon”, “Kunbotir va Oysuluv”;

4) Lirik-romantik xarakterdagi dostonlarga “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Ravshan va Zulxumor”, “Rustam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Balogardon”, “Bo‘tako‘z” misol bo‘la oladi.

Dostonlar janriga bir qator o‘tmish shoirlari ham murojaat etganlar. Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” turkumi (7 ta dostonidan iborat), Alisher Navoiyning “Xamsa” va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘zbek musiqa san‘atida dostonning ikki ijrochilik uslubi mavjud: Xorazm doston ijrochiligi va Surxondaryo – Qashqadaryo ijrochilik uslublari. Xorazm doston ijrochiligida dostonning ma‘lum qismi so‘z bilan ifodalanib, ma‘lum bir bo‘laklari qo‘shiq ko‘rinishida kuyga solib aytiladi. Ijro jarayonida dostonchilar tor, garmon, dutor, doira, bulamon cholg‘ularidan foydalanadilar. Ayni paytda, Bolabaxshi taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Qurbonnazar Abdullayevning ijodi va ijro uslubi keng ommalashgan.

Surxon vohasi doston ijrochiligi qadimiy uslubga asoslangan bo‘lib, do‘mbira jo‘rligida ijro etiladi. Ushbu vohaning asosiy musiqiy janrlaridan hisoblangan dostonlar ayni paytda bir qator ijro yo‘llariga ega. Xalqimizning mashhur dostonchilaridan Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Islom shoir, Abdulla Nuraliyev va boshqalar barakali ijod qilishgan.

● *Folklor ansambli ijrosida kuy tinglang.*



Os- mon-ning os- ti yer-mi, yer - ning us - ti os - mon mi



O‘ZBEKISTON – JANNAT

Dilshod Rajab she’ri

Xurshida Hasanova musiqasi

O‘rta sur‘atda



Sig‘-ma-sa ham o‘-zi do‘st-ga Jo-yi bor u- ning,



Yo'lov- chi-ga bir pi- yo- la cho-yi bor u- ning.



Do'p-pi- si- ni ko'k- ka o- tib, Shod-lan- sa ar- zir.



Do'p- pi- si- ni ko'k- ka o - tib, Shod-lan-sa ar- zir.



O'z-be- kis- ton de-gan jan- nat jo- yi bor u- ning. O'z-be-



kis- ton - jan- nat. O'z- be- kis- ton - jan- nat.



O'z-be-kis- ton de-gan jan- nat jo- yi bor u- ning. O'z-be-



O'z-be-kis- ton de-gan jan- nat jo- yi bor u- ning.

Sig'masa ham o'zi do'stga

Joyi bor uning.

Yo'lovchiga bir piyola

Choyi bor uning.

Naqarot:
 Do'ppisini ko'kka otib,
 Shodlansa arzir.
 O'zbekiston degan jannat
 Joyi bor uning.
 O'zbekiston – jannat, O'zbekiston – jannat.
 O'zbekiston degan jannat
 joyi bor uning.

O'g'il-qizi yorug' yulduz,
 Oyi bor uning.
 O'chmas izi, bosadigan
 Toyi bor uning.

Naqarot


Nurimova Lazokat Mirsalim qizi Respublikamizda birinchilar qatorida folklor-etnografik ansamblini tashkil etgan. Xalq yalla va laparlarining mohir ijrochisi, tashkilotchi rahbar va ustoz. 1923-yili Bo'stonliq tumani G'azalkent shahrida tug'ilgan. 200 dan ortiq qo'shiq va termalarni ijro etgan.



Folklor musiqasi. O'zbek folklor musiqasi o'zining ijroviy xususiyatlari asosida ikki guruhga bo'linadi: Voqelik bilan bog'liq, ya'ni ma'lum vaqtda ijro etiladigan qo'shiqlar; Vaziyatga ko'ra va erkin holatda ijro etiladigan qo'shiqlar.

Birinchi guruhga: Marosim – “Yor-yor”, “Kelin salom” (to'y), “Yig'i”, “Sadr” (diniy), “Mayda”, “Yozi”(mehnat), “Xo'sh-xo'sh”, “Chiroy-chiroy” (chorvachilik), “Alla” va boshqalar.

Ikkinchi guruhga: erkin holda ijro etiladigan asarlar. Bu namunalar odatda qo'shiq, terma, yalla, lapar va ashula janrlari asosida yaratilib kelinadi. Ular folklor musiqasining asosiy janrlari hisoblanadi.



- ?! 1. Folklor musiqasi haqida nimalarni bilasiz?
 2. O‘zbek dostonchilik san’ati va ijrochilik uslublari haqida so‘zlab bering.
 3. “O‘zbekiston – jannat” qo‘shig‘ining mualliflari kimlar?
 4. “O‘zbekiston – jannat” qo‘shig‘ini birgalikda kuylang.

5-Mavzu: **ESTRADA MUSIQASI. B. ZOKIROV VA “YALLA” GURUHI**



O‘zbekiston xalq artisti
G‘ulomjon Yoqubov



O‘zbekiston xalq artisti
Nasiba Abdullayeva

Estrada so‘zi lotin tilida “tepa-lik” (sodda qilib aytganda, taxtasupa) ma’nosini anglatadi. XX asrda estrada so‘zi musiqaga kirib keldi va tomosha san’atining kichik shakli sifatida qo‘llanila boshlandi. Estrada – bu yengil maishiy xarakterli ommabop musiqa bo‘lib, uning tashkil topish tarixi g‘arb xalqlarining teatr-tomosha shakllaridan boshlanadi. Bu G‘arbda ommalashgan kafeshaktan, muzikxoll madaniyatlarining o‘zaro ta’sirida rivojlandi. Asta-sekin jaz, Yevropa va Sharq garmoniya va ritmikasi, rok, pop, rep kabi musiqalar va yo‘nalishlar estradani egalladi.

O‘zbekistonda ham estrada musiqasi XX asrning 50-yillarida shakllana boshladi. Unga Botir Zokirov asos soldi.

Shundan so‘ng estrada musiqasi tez ommalashdi va rivojlandi. “Yalla”, “Paxtaoy”, “Navo”, “Sado” kabi estrada guruhlari shakllandi. Ayniqsa, 80–90-yillardan boshlab jahon andozalariga mos turli rok, rep guruhlari tuzildi. O‘zbek estradasi mislsiz ravnaq topdi.

Estrada musiqasi istiqlol yillarida sifat jihatidan ancha o‘ydi. Yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratilganligi ulkan

samaralarga asos bo'ldi. Nasiba Abdullayeva, Kumush Razoqova, Ravshan Komilov, Ozod Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, Sevara Nazarxon kabi namoyandalar shakllandi. Ularning ijodlari "Milliy estrada" degan musiqiy tushunchaga mosligi bilan yoshlar orasida keng ommalashgan. O'zbek milliy estradasida xalqimizga xos musiqiy, adabiy, axloqiy, milliy an'analar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

BOTIR ZOKIROV – O'zbek estrada musiqasining asoschisi, o'zbek milliy estrada san'atining yirik namoyandasi, ajoyib shoir, rassom, dramaturg, rejissor va mohir xonanda Botir Zokirov Toshkentda ustoz san'atkor Karim Zokirov oilasida tavallud topgan. U o'z kasbining ustasi edi, muntazam ravishda o'zbek milliy estrada san'ati rivoji yo'lida izlanishlar olib bordi. Ijodiy izlanishlar jarayonida rus, xorijiy, sharq estrada qo'shiqlarini o'zbek milliy qo'shiqchiligiga uyg'unlashtirib, yangi qiyofa topishga muvassar bo'ldi. B.Zokirov Toshkent Davlat konservatoriyasida va Toshkent Teatr va rassomchilik institutida tahsil olgan. Uning amalga oshirgan ijodiy ishlari keyinchalik o'zbek estradasining mumtoz andazasi bo'lib qoldi.



Estrada xonandasi Botir Zokirov

Masalan: "Arab tangosi", "Habiba", "Qochoq qiz" va boshqalar. B.Zokirov bu qo'shiqlari bilan O'zbekistonni butun dunyoga tanitdi. Ayniqsa, "Ra'no", "Maftun bo'ldim" kabi qo'shiqlari bilan o'zbek estradasida o'chmas iz qoldirdi.

B.Zokirov yosh iste'dodlarni izlashda, ularga yo'l ko'rsatishda mehnatini ayamadi. Uning bu mehnatlari samarasi o'laroq, juda ko'p yosh iste'dodlar kashf etildi.

"YALLA" GURUHI – o'zbek estrada musiqasining faxri bo'lgan "Yalla" guruhi 1971-yili tashkil topgan. Uning qatnashchilari Toshkent Teatr va rassomchilik instituti va konservatoriya talabalari B.Zokirovning shogirdlaridan edi.



“Yalla” vokal-cholg‘u guruhi

“Yalla” guruhi o‘z paytida VIA (vokal-instrumental ansambli) shaklida faoliyat ko‘rsatib, O‘zbekistonda ilk estrada-rok guruhlari qatoridan o‘rin oldi. Unga bir necha yillar davomida Farrux Zokirov rahbarlik qilib kelmoqda. U “Yalla”ni professional guruhlar darajasiga ko‘tardi. “Yalla” ijrosidagi “Uchquduq”, “Choyxona”, “Mahbubam chiroyli”, “Yallama-yorim”, “G‘ayrag‘ayra”, “Qilpillama” kabi qo‘shiqlar o‘zbek estrada musiqasi xazinasidan munosib joy oldi. 1982-yili “Yalla” yoshlarning IX jahon festivalida 1-o‘rinni egallab, butun dunyoga dong taratdi.

- ⊙ *“Arab tangosi” va “Ra‘no” S. Akbariy she‘ri, I. Akbarov musiqasi (B. Zokirov ijrosida), “Yalla” vokal-cholg‘u guruhi ijrosida “Shahrisabz”, “Toshkentim”, “Choyxona” qo‘shiqlarini tinglang.*

O‘ZBEKISTON – ABADIY BAHORIM

Rauf Tolib she‘ri

Nadim Norxo‘jayev musiqasi

O‘rtacha tez

Bog‘lar qanday ser- ji- lo, Bir qa-rang.

Soy kuy-la-ri bosh- qa-cha, ser- ja- rang.

G‘un-cha men- ga jil- ma- yib kul-gan-day.

O- na yur- tim Se-h(i)r-ga to‘l-gan-day.

Ko'n-gil- lar- da ming his-tuy-g'u, Ming his-tuy-g'u ke-cha-di.

Or-zu qush-day tal-pi-na-di, tal-pi-na-di, u-cha-di. O'z- be-kis-


ton, O'z- be- kis- ton -

a- ba- diy ba- ho- rim.

Tovlanadi ming rangda
 Bog'-bo'ston.
 Dehqon yozgan quyoshday
 Dasturxon.
 Senda qancha rang, jilo,
 Diyorim.
 O'zbekiston – abadiy
 Bahorim.

N a q a r o t :

Ko'ngillarda ming his-tuyg'u,
 Ming his-tuyg'u kechadi.
 Orzu qushday talpinadi,
 Talpinadi, uchadi.

 Estrada janrlarini farqlash.
 Estrada san'atining janrlari va turlari ko'p. Asosiy yo'nalishi ikkita, ya'ni estrada qo'shiqchiligi va cholg'u ijrochiligi. Lekin xalq orasida keng ommalashgan uslublari quyidagicha rok, pop, rep, jaz kabi nomlanadi. Har bir janrning o'zini shakli, xususiyati va ijro uslubi mavjuddir. Rok – murakkab – og'ir yo'l; Pop – ommaviy janr bo'lib, shakllari ko'p. Xalq orasida biz kundalik sharoitda tinglaydigan estrada kuy va qo'shiqlarini aksariyati mana shu janrga tegshlidir. Qolaversa, bu janr ham bir nechta yo'llariga egadir. Rep – yoshlar orasida ommalashgan, so'zni ritmik usullar asosida aytishga asoslangan janrdir.

- ?! 1. Estrada soʻzining maʼnosini bilasizmi?
 2. Oʻzbekistonda estrada musiqasi qachon shakllana boshladi?
 3. Siz qanday estrada guruhlarini bilasiz?
 4. Oʻzbek estrada sanʼatining yirik namoyandasi Botir Zokirov haqida gapirib bering.
 5. “Oʻzbekiston – abadiy bahorim” qoʻshigʻini yod oling va kuylang.
 6. “Yalla” guruhi haqida nima bilasiz?

6-Mavzu: MUSIQA SANʼATI KOʻRIK-TANLOVLARI VA FESTIVALLARI


Milliy musiqa sanʼatini yana-da rivojlantirish maqsadida Respublika boʻyicha koʻrik-tanlovlar hamda jahon festivallarini oʻtkazish hozirgi kunda anʼanaviy tus olmoqda.


Xususan, anʼanaviy qoʻshiq bayramlari, “Yagonasan muqaddas – Vatan”, “Barhayot anʼanalar” Respublika koʻrik-tanlovlari har yili muntazam ravishda oʻtkazilmoqda.


“Ona yurt ohanglari”, Mulla Toʻychi Toshmuhamedov, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Joʻraxon Sultonov, Maʼmurjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Yunus Rajabiy kabi ustoz sanʼatkorlar ijodiga bagʻishlangan hofizlar tanlovi va ijodiy anjumanlar shular jumlasidandir.

Folklor ansambllarining koʻrik-tanlovlari, dostonchi baxshilarining bellashuvi ham anʼanaga kirib bormoqda.

Mumtoz musiqaga bagʻishlab Samarqand shahrida oʻtkazilayotgan Xalqaro “Sharq taronalari” festivali milliy musiqamiz rivojida alohida oʻrin tutadi.

 *Festivallar va koʻrik-tanlovlar dasturlaridan filmlar tomosha qiling (Masalan, “Sharq taronalari” festivali va h.k.).*

 *“Oʻzbekiston abadiy bahorim” R.Tolib sheʼri, N. Norxoʻjayev musiqasi*

 Quyidagi kuyni dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovush bilan kuylang:

Harakatchan



- ?! 1. Zamonaviy asarlar yaratadigan qanday kompozitorlarni bilasiz?
•• 2. Zamonaviy musiqa san'ati va uning rivoji haqida gapirib bering.
3. O'zbek zamonaviy musiqasi xususida nima bilasiz?
4. Folklor musiqasiga xos asosiy jihatlar qaysilar?
5. O'zbek estrada musiqasi asoschisi kim va uning qanday qo'shiqlarini bilasiz?
6. "Yalla" ansambli haqida so'zlab bering.
7. Hozirda faoliyat olib borayotgan qanday estrada qo'shiqchilarini bilasiz?

NAZORAT ISHI

1. O'zbek zamonaviy musiqasi nima?

- A) Folklor musiqa, yallalar. B) Baxshilar ijodi
C) Hozirgi kunda ijro etilayotgan zamonaviy musiqa turlari

2. Folklor musiqasi deganda nima tushiniladi?

- A) Bastakorlar tarafidan yaratilgan ijod namunalari B) Katta, mumtoz ashulalar
C) Voqelik bilan bog'liq bo'lgan xalq musiqasi

3. Folklor musiqaga qanday janrdagi namunalar kiradi?

- A) Allalar, laparlar, termalar, qo'shiqlar B) Estrada yo'nalishidagi kuy-qo'shiqlar
C) Katta ashulalar, qo'shiqlar, yallalar

4. Estarada so'zining manosi qanday?

- A) Teatr B) Taxtasupa C) Qo'shiq

5. O'zbekistonda zamonaviy estrada musiqasining asoschisi kim?

- A) Nadim Norxo'jaev B) Botir Zokirov. C) Shermet Yormaov

6. "Yalla" guruhi qachon tashkil topgan?

- A) 1971-yilda B) 1970-yilda C) 1974-yilda

7. "Yalla" guruhi ijro etgan qo'shiqlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) "Choyxona", "Majnuntol" B) "Ra'no", "Arab tangosi", "Maftun bo'ldim" C) "O'zbekiston jannat", "Ra'no", Shaxrisabz"

8. Quyidagilardan qaysi biri folklor musiqasidan mehnat bilan bog‘liq qo‘shiq?

- A) “Charxim” B) “Yor-yor” C) “Oq terakmi, ko‘k terak”


9. Bolalar uchun yaratilgan qanday folklor qo‘shiqlarini bilasiz?

- A) “Boychechak”, “Chamanda gul”, “Oq terakmi ko‘k terak”
 B) “Mayda-mayda”, “Xo‘sh-xo‘sh”, “Charxim”
 C) “Yor-yor”, “Kelin salom”

10. Mehnat bilan bog‘liq folklor qo‘shiqlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) “Boychechak”, “Chamanda gul” B) “Kelin salom”,
 “To‘ylar muborak” C) “Mayda-mayda”, “Xo‘sh-xo‘sh”, “Charxim”

BOSHQOTIRMA



1. Zamonaviy musiqa ijodkori.
2. O‘zbek kompozitori.
3. Yirik musiqiy janr.
4. Ikki torli o‘zbek xalq cholg‘usi.
5. Musiqaning yozuv tili
6. 1971-yilda faoliyat boshlagan o‘zbek vokal ansambli.
7. Xalqlar do‘stligini madh etuvchi anjuman.
8. Orkestrni boshqaruvchi shaxs.
9. Birinchi tashkil etilgan bolalar estrada vokal ansambli.
10. Yirik sahnaviy asar.
11. Yalla guruhining qo‘shig‘i.
12. B.Zokirov ijro etgan taniqli estrada qo‘shig‘i.

13. Yalla guruhining qo‘shig‘i.
14. Xorazm doston ijrochiligida keng qo‘llaniladigan cholg‘u.
15. Xalq musiqa ijodi qanday nomlanadi.
16. O‘zbek musiqa ijodkori (bastalovchisi) qanday nomlanadi.
17. Yoshlar orasida keng ommalashgan zamonaviy musiqiy yo‘nalish.

III CHORAK

SHARQ XALQLARI MUMTOZ MUSIQASI

1-Mavzu: SHARQ TARONALARI

Sharq xalqlari mumtoz musiqasi qadimdan bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Xususan, Sharq mumtoz musiqasi “maqom” janri orqali uzviy bog‘lanadi. O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari musiqasiga xos ladlar, usullar, nola va bezaklarda juda ko‘p umumiylik mavjuddir.

Samarqand shahrida 1997-yildan boshlab, har 2 yilda an‘anaviy tarzda o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalining mohiyati ham Sharq mumtoz musiqasi vositasida millatlararo ma‘naviy rishtalarni qayta tiklamoq va ularga zamonaviy mazmun bag‘ishlamoqdan iboratdir.

Bu festival YUNESKO va musiqa bo‘yicha Xalqaro Kengash tomonidan tasdiqlangan va unda o‘zbek, tojik, turkman, qirg‘iz, qozoq, ozarbayjon, afg‘on, eron, turk, arab, xitoy, yapon va boshqa millat vakillari o‘z san‘atlari hamda mumtoz musiqalarini namoyish etadilar.

● *D.Omonullayevaning Usmon Azim she‘riga bastalagan “Sharq taronasi” festivali madhiyasini tinglang.*

SHARQ TARONASI

(Festival madhiyasi)

Usmon Azim she‘ri

Dilorom Omonullayeva musiqasi







Dun-yo-ning ko'ng-li-ga sen ber-ding ha-yot. Ru-hing-dan, o- na-sharq,



ya-ral- di ba-yot. Kuy- la-moq shav-qi-da mo- hir o'-zing-san,



Ho-fiz o'-zing-dir-san, sho- ir o'-zing-san. Jo'r bo'l-gin in- son- ga



mu- si- qa – qa-not. Qo'-shiq-dan ko'n-gil-lar bo'l- g'u-si bun-yod.



Qo'-shiq-da o'r-tan- gan ti- lak-san, o Sharq! Jum- la- i ja-hon-ga yu-rak-



san, o Sharq!

Sa- lom,

Sa- mar- qand –

Sharq dar-vo- za- si, Ta- ral ja- hon- ga -


Sharq ta- ro- na- si! Ta- ral ja- hon-

ga - Sharq ta- ro- na- si!

Dunyoning ko‘ngliga sen berding
 hayot,
 Ruhingdan, ona-Sharq, yaraldi
 bayot.
 Kuylamoq shavqida mohir
 o‘zingsan,
 Hofiz o‘zingdirsan, shoir
 o‘zingsan.

N a q a r o t :

Salom, Samarqand – Sharq
 darvozasi,
 Taral jahonga – Sharq
 taronasi!

 Quyidagi kuyni dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof
 tovush bilan kuylang:

- ?! ••
1. “Sharq taronalari” festivali haqida nimalarni bilasiz?
 2. “Sharq taronalari”ning vazifasi va mohiyati haqida so‘zlab bering.
 3. “Sharq taronalari” festivalida qaysi millat musiqachilari o‘z san’atini namoyish etadi?
 4. Mazkur mavzu bo‘yicha test savollari tuzing.

2-Mavzu: **TURK VA OZARBAYJON XALQLARINING MUMTOZ MUSIQASI**

Turk musiqasi Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa, o‘zbek musiqasi bilan ko‘p jihatlardan o‘xshashdir. Turk musiqasining asosiy kasbiy janri “maqom” deb nomlanadi va u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat – taqsim, kor, basta va h.k. Turk maqomlari ijrosida zurna, bog‘lama, soz, kamoncha, tanbur, yoyli tanbur (o‘zbek satosiga o‘xshash), qonun, ud, sumbut, doira, daff kabi milliy cholg‘ular ishlatiladi. Turklarda diniy marosim janrlaridan azon, tavjid, movlaviy o‘yin, zikr va boshqalar keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy turk estrada musiqasi o‘zining milliy tarovati, sharqona o‘ynoqiligi bilan jahonga mashhur.



Zurna



Daff



Soz



Darabuka

Ozərbayjon xalqi turkiy xalqlar avlodiga mansub bo‘lib, o‘zining uzoq o‘tmishiga va milliy qadriyatlariga ega. Ozərbayjon xalqining ijtimoiy hayoti negizida janrlarga boy bo‘lgan an’anaviy madaniy merosi to‘plangan. Ular asosan turmush tarzi qo‘shiqlaridan iboratdir.

Tasniflar ozərbayjon xalqining musiqasi usulida ijro etiladigan ko‘plab tizimdagi qo‘shiqlari bo‘lsa, mug‘omlar erkin ijroga asoslangan badiha uslubiga xos bo‘lgan yirik mumtoz janrdir.

Ozarbayjon xalqi musiqiy cholgʻularga ham boy. Xalq orasida tutek, tulup-zurna, balabon, duduk, kemoncha, soz, tor, daff, gabal, nogʻora, bala-nogʻora yoki dumbul kabi milliy musiqiy cholgʻulari keng ommalashgan.

● *Turk va ozarbayjon xalq kuylaridan tinglang.*



Sharq taronasi” festivali madhiyasi. U. Azim she’ri. D. Omonullayeva musiqasi.



Berilgan kuyni aniq, ravon va sof tovushda kuylang:

GIZIL GUL

(Ozarbayjon xalq qoʻshigʻi)

Oʻrtacha tez



- ?! 1. Turk xalq musiqasi haqida nimalarni bilasiz?
 •• 2. Ozarbayjon xalq musiqasi hamda cholgʻulari haqida-chi?

3-Mavzu: TURKMAN XALQ MUMTOZ MUSIQASI



Turkman ansambli

Turkmaniston Oʻrta Osiyo xalqlari orasida qadimiy tarixga ega davlatlardan biridir. Uning uzoq oʻtmi-shiga munosib boy qadriyatlari va milliy anʼanalari shakllangan. Turkmanistonning yana bir olamshumul jihati, bu hududdan “Buyuk Ipak yoʻli” oʻtganligida va qadimiy ilm maskanlaridan boʻlgan Marv shahri shu yerda joylashganligidadir.

Barcha xalqlar singari turkmanlarda ham xalq musiqasi, uning sodda va

mumtoz yo‘llari mavjud. Turkman xalq musiqasida, asosan, mehnat, marosim, maishiy, epik va mumtoz namunalar o‘z aksini topgan. Xalq orasida keng ommalashgan musiqiy namunalardan “Huvdi” (alla), “Yagish yagara keldi” (bolalar qo‘shig‘i), “Yar-yar” kabi bir qator asarlarni misol qilib keltirish mumkin.

Turkman mumtoz musiqasining asosiy janrlari: dostonlar, badiiy adabiyot namunalariga asoslangan ashulalardir. Turkman xalq ashula va qo‘shiqlarining o‘ziga xos tomoni shundaki, ular ko‘proq deklamatsion, ya‘ni so‘zlashuv xarakterida ijro etiladi. Turkman xalqi epik janr ijrochilarini “baxshi” deb ataydilar. Turkmanlarning eng qadimiy dostoni bu “O‘g‘iznoma”dir. Bundan tashqari, ularning merosidan “Go‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Asl va Karim” kabi dostonlar ham joy olgan.

Turkman musiqasidagi asosiy cholg‘u sozlari: g‘ijjak, dutor, tuyduk, dilli tuyduk va qo‘bizlardir.

⊙ “Zohre jan” xalq kuyi.



Qish- da kish-mish pish-mas-mish, pish-sa kish-mish qish-mas-mish

GUSHLAR



Veli Ahmedov musiqasi
Shermat Yormatov bolalar
xori uchun moslashtirgan

Yak-kaxon

Tezroq

Gish so- vul- di, ba- har gel- di,

S. 1.


S. 2.

A.

Sal- kin ba- gi ge- kol- di.

Yakkaxon

Ge-lin gush-lar, say-rang gush-lar, ya- shil ba- ga
 Xor:
 yay- rang gush-lar, Ge- lin gush-lar, say-rang gush-lar,
 ya- shil ba- ga yay-rang gush-lar, yay- rang gush- lar.
 1.
 lar. Ge-lin gush-lar, say-rang gush-lar,
 ya- shil ba- ga yay- rang gush-lar. Ge- lin gush-lar,
 Say-rang gush-lar, ya- shil ba- ga yay-rang gush- lar,
 2.



Gish sovuldi, bahar geldi,
Salkin bagi gekoldi.

Gayduk bezep jaynizi,
Gayduk dene paynizi.

N a q a r o t :

N a q a r o t :

Gelin gushlar, sayrang gushlar,
Yashil бага yayrang gushlar.

Gelin gushlar, sayrang gushlar,
Yashil бага yayrang gushlar.

Quyidagi kuyni dirijorlik qilib, notalar bo'yicha kuylang:

ZOHRE JAN

Turkman xalq kuyi

$\text{♩} = 192$ Tez-jonli



- ?! 1. Turkman xalq musiqasi haqida gapirib bering.
!! 2. Turkman musiqiy cholg'ularidan qaysilarini bilasiz?

4-Mavzu: **ERON VA ARAB XALQ MUMTOZ MUSIQASI**

Eron musiqasining tarixiy ildizlari o'zbek, tojik va turkman xalqlari madaniyatining ko'hna sahifalari bilan chambarchas bog'langan.

O'zbek va tojik musiqasining bobokaloni – Barbod Marviy (VII asr) Eron musiqasining ham asoschisi hisoblanadi. Buyuk


ajdodlarimiz – Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy va boshqa mutafakkirlarning musiqa sohasida qoldirgan ulkan merosi Eronda ham milliy-ma'naviy qadriyat sifatida e'zozlanadi.

O'zbek-tojik maqomlariga o'xshash bo'lgan Eron kasbiy musiqasining asosiy janri “dastgoh” deb ataladi.

Eronda 7 ta dastgoh turkumi mavjud: Shur, Mohur, Humoyun, Segoh, Chorgoh, Navo, Rost-Panjgoh.

Har bir dastgoh, o'z navbatida, Muqaddima, Daromad, Qarashma, Go'sha, Ovoz, Chahor Muzrob, Bayoti Turk, Abu Ato kabi tarkibiy qismlarga bo'linadi.

Eronda soz, tanbur, santur, nay, surnay, ud, doira, chang kabi milliy cholg'u asboblardan keng foydalaniladi.

 Quyidagi erkin usulga asoslangan kuyni dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovush bilan kuylang:



Litavra



Duduk, zurna



Tor



Eronlik cholg'uchilar ansambli



Arab xonandasi
Ummu Kulsum

Arab xalqlari mumtoz musiqasi.

Arab xalqlari koʻhna va boy musiqa anʼanalariga ega. Bu mintaqada jozibador va oʻziga xos tarovati bilan farqlanuvchi samoniy, taqasim, bashraf muvanshoh, mavval, dar, kuba, maʼruf kabi aytim janrlari hamda taxlima, samoniy, taqasim, bashraf singari cholgʻu — kuylar keng tarqalgan. Qadimda asli Markaziy Osiyoda ixtiro qilingan ud sozi barcha arab xalqlarining milliy cholgʻu asbobi hisoblanadi. Shuningdek, damli cholgʻu turlaridan — nay, surnay, argʻul; torli cholgʻulardan — qonun, santur, rubob, tanbur; zarbli cholgʻu asboblardan — nogʻora, daff, tabla arablarda keng qoʻllaniladi. Diniy marosim janrlari — tavjid, madh, zikr, ramazon qoʻshiqlari arab musiqasida azaldan shakllanib kelgan.

Arab musiqasining mashhur namoyandalari Ummu Kulsum va Said Darveshning nomlari jahonga mashhurdir.

Arab musiqasining mashhur namoyandalari Ummu Kulsum va Said Darveshning nomlari jahonga mashhurdir.

● *Eron xalq musiqasidan namuna tinglang.*



“Gushlar” Turkman xalq kuyi.



Digʻajon xalq kuyiga dirijorlik qilib, nota boʻyicha kuylang:

DIGʻAJON

Joʻshqin Xalq kuyi

- ?! 1. Eron musiqasining bobokaloni Barbod Marviy haqida nimalarni bilasiz?
 •• 2. Dastgoh turkumlari va Eron milliy cholgʻulari haqida gapirib bering.
 3. Arab xalq musiqasi haqida va milliy cholgʻulari haqida gapirib bering.

5-Mavzu: XITOIY VA UYGʻUR XALQ MUMTOZ MUSIQASI

Xitoy qadimiy va boy madaniy anʼanalarga ega mamlakatdir. Xitoy musiqasi, ayniqsa, xalq qoʻshiqchiligi qadim zamonlardan pentatonika tovushqatorlariga asoslanadi. Tan sulolasi davrida xitoy musiqasining asosiy pardalari va tovushqatorlari Lyuy-lyuy tizimi asosida shakllanadi. XII – XIV asrlarda anʼanaviy xitoy operasi rivojlanadi. XIX asrda bu janrning 300 dan ortiq shakllari yuzaga keladi. Ashula, rechitativ raqs va cholgʻu musiqasiga asoslangan xitoy operasining mumtoz namunasi sifatida Pekin musiqa teatri Sitszuy keng rivojlangan.

Zamonaviy xitoy musiqasi mashhur kompozitorlari Si Sin-Xay, Nye Er, Chjan Shu, Xuan Sen, Xe Lu-Tin va boshqalar ijodida taraqqiy etmoqda.



Sona



Xutsin



Kato

Uygʻur xalqi koʻp asrlik tarixga ega boʻlib, oʻzining boy madaniy merosi bilan Markaziy Osiyo xalqlari orasida alohida oʻrin tutadi. Uygʻur xalq musiqasi sanʼati ikki yoʻnalishda, yaʼni folklor va ogʻzaki anʼanadagi kasbiy musiqa yoʻnalishida shakllangan.

Uygʻur kasbiy musiqasi uchta katta hududga ajratiladi. Bular: Qashqar, Kumul (markaziy Turfon) va Ili vodiysi (markaziy Gʻulja). Kasbiy musiqada Ili vohasining musiqa sanʼati yetakchi hisoblanadi. Uygʻur musiqasining kasbiy tizimiga kiruvchi janrlar: maqom va muqom tizimiga kiruvchi turkumiy janrlar –

doston, naxsho va sanam. Uyg'urlarning yetakchi milliy cholg'u sozlari: tanbur, dutor, safoil qashqar rubobi, g'ijjak, nog'ora va surnay. Odatda, musiqa ijrochilari xalq orasida muqomchi, dostonchi, naxshichi, sanamchi, mashrapchi, usulchi, aytimchi va cholg'uchi kabi iboralar bilan nomlanadi. Uyg'ur musiqasi o'ziga xos jozibali va serqochirimlidir.

⊙ *Xitoy va uyg'ur xalqlari musiqalaridan namunalar tinglang.*




SPORT

Kavsar Turdiyeva she'ri

Xurshida Hasanova musiqasi

Sho'x

f Sport bi-lan bir-ga tash-lay-miz o-dim
 bo'-la miz g'o-lib ham-ma-dan ol- din ol-tin-u ku-mush
 o-la - miz ni-shon a-ziz yur-ti-miz biz-lar-ga i - shon
 Biz-ning do's-ti-miz sport, sport, sport yu-tuq-
 la- ri- miz re- kord, re-kord. Biz-ning do's-ti- miz
 sport, sport, sport yu-tuq -la- ri- miz re- kord, re -kord
 Bir ik - ki uch biz - lar - da bor kuch



Quyidagi kuyni dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovush bilan kuylang:

Hazil, quvnoq



- ?! 1. Xitoy xalq mumtoz musiqasi va xitoy operasi haqida nimalarni bilasiz?
 2. Uyg'ur xalq musiqasi va muqomlari haqida gapirib bering.
 3. "Sport" qo'shig'ining mualliflari kimlar? Qo'shiqni sinfdoshlar bilan birgalikda kuylang.

6-Mavzu: YAPON VA HIND MUMTOZ MUSIQASI



Yapon teatri aktrisasi

Yaponiya qadimdan Xitoy va Koreya xalqlari bilan yaqin madaniy aloqalar o'rnatgan bo'lib, keyinchalik, O'rta asrlarda o'z orollari chegarasida cheklanib qoladi. XIX asrda Yaponiya madaniyatida Yevropa ta'siri kuchayadi. 1879-yili Musiqa san'ati instituti, 1886-yilda esa Tokio musiqa maktabi tashkil etiladi va ushbu ta'lim dargohlarida yaponiyaliklar G'arb mamlakatlari musiqasi bilan tanisha boshlaydi. Yaponiya musiqasida cholg'u janrlari rivojlangan bo'lib, milliy cholg'ular – syamisen va koto keng qo'llaniladi. Yaponiya butxonolari va saroy marosimlarida shakllangan bugaku musiqasi ansambl jo'rligida ashula va raqslar bilan ijro etiladi. Yapon kasbiy

musiqasining boshqa janri gigaku samuraylar muhitida shakllangan bo‘lib, ashula, raqs va cholg‘u musiqa turlaridan tarkib topgan. Yaponiyada, shuningdek, noo va kabuki musiqiy teatr janrlari shakllangan.

Zamonaviy yapon kompozitorlari milliy an‘analar va Yevropa musiqa shakllarini Yaponiya musiqasi asosida rivojlantirgan holda ijod qilishmoqda. Yapon dirijorlari Kasaku Yamada va Xide-Moru Kanoa, skripkachilardan Masuko Ksioda va Yakko Soto, kompozitorlardan Yasuki Akudagova, Massao Oki, Asude Kiosi va boshqalar ijodiyoti jahonda mashhur.



Hind cholg‘uchisi

Hind musiqasining mohir ijrochilaridan kimlarni bilasiz?

Hindiston mamlakati jahon miqyosida tan olingan buyuk musiqiy san‘at an‘analari vatani ekanligi ma‘lum. O‘rta Osiyo va Hindiston san‘atlarining, shuningdek, hindlarning “Santur” musiqiy cholg‘usini o‘zbek “changiga, “bansuri”ni “nay”ga o‘xshashligi kabi va yana boshqa misollarni

keltirsa bo‘ladi.

Hind xalq musiqasi janrlari juda boy va xilma-xildir. Bunda turli xil folklor janrlari bilan birgalikda jahonga mashhur bo‘lgan mumtoz janr – “Raga”larni ham alohida ta’kidlash lozim. Ma’lumki, hind ragalari o‘z o‘rnida o‘zbek-tojik “Shashmaqom”i singari mukammal shakl va falsafiy mavqedagi janr sanaladi.

Hind musiqiy cholg‘ulari ham ancha rang-barang. Hind mumtoz musiqasini dunyoga tanitishda Ayan Akbar Xon, Xariprost va Y.V.Narayaposvali kabi mohir ijrochilarning hissalariga katta.



Setor



Tabla



Bansuri

⊙ *Yapon va hind xalq musiqasidan namunalar tinglang.*



DADIL BO‘LIB – AHIL BO‘LIB

Po‘lat Mo‘min she‘ri

Nadim Norxo‘jayev musiqasi

Sho‘x



Yax- shi o‘y- lab, sho- shil- mas- dan,



Ha- yol o- tin sho- shir- mas- dan,




Yax- shi o‘y- lab, sho- shil- mas- dan,



Ha- yol o- tin sho- shir- mas- dan,



Ki- rish- gan- miz o‘-qish, ish-ga, Hu- nar, ta‘-lim o‘r-ga-nish – ga.



o‘r-ga- nish- ga.

O‘r-ga- na- miz a- hil bo‘-



lib, Ul- g‘aya- miz da- dil bo‘- lib.

Naqarot:

A- hil bo‘-lib,



da- dil bo‘-lib,

o‘r-ga- na- miz,

ul- g‘aya- miz

Bilim bog‘i – maktablarda,
Guruhlarda, keng saflarda,
Qadam qo‘ysak gursillar yer,
Do‘stlar ko‘rib “ofarin” der.

Naqarot:
O‘rganamiz ahil bo‘lib,
Ulg‘ayamiz dadil bo‘lib.
Ahil bo‘lib, dadil bo‘lib.
O‘rganamiz ulg‘ayamiz

 Quyidagi kuyni dirijorlik qilib, notaga qarab kuylang:

Shoshilmay



- ?! 1. Qadimda Yaponiya qaysi xalqlar bilan madaniy aloqalar o‘rnatgan?
•• 2. Mashhur yapon kompozitor va dirijorlari haqida gapirib bering.
3. Ragalarning maqom janriga xos xususiyatlari haqida gapiring.

7-8-Mavzu: QOZOQ VA QIRG‘IZ XALQ MUSIQASI

Qozoq xalqining musiqiy madaniyati ko‘p jihatlari bilan qirg‘iz xalqi madaniyatiga yaqin. Qozoqlar o‘tmishda ko‘chmanchi xalq bo‘lib, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullangan. Musiqa san‘ati, asosan, og‘zaki an‘ana tarzida rivojlanib kelgan. U xalq qo‘shiqchiligi, dostonchilik, cholg‘u musiqasi kasbiy janriga xos aqin (professional) darajadagi musiqiy namunalardir.

Qozoqlar qo‘shiqni – “an” va “o‘lan” deb yuritadilar. Qo‘shiqchilar esa “anshi”, “o‘lanshi” deb ataladi. Doston qozoq musiqa san‘atida chuqur tarixga ega bo‘lgan yetakchi janrlardan hisoblanadi. Mashhur dostonlari “Qizjibek”, “Aman va Sho‘lan” va boshqalar. Doston, asosan, do‘mbira cholg‘usi bilan ijro etiladi. Bu janrni ular “jir” deyishadi va ijrochisi “jirshi” nomida yuritiladi. Shu bilan birga, qozoq xalqi orasida



“aytishuv” janri keng ommalashgan. Musiqiy cholg‘ulari esa xalqning ijtimoiy hayotidan kelib chiqqan. Bunga do‘mbira, qo‘biz, sibizg‘a, shanqobiz, chanqo‘biz kabilarni misol qilish mumkin.

Qozoq xalq musiqa madaniyati XIX va XX asrlarda Yevropa musiqasi ta’siri ostida keng rivojlandi.

Qirg‘iz xalq musiqasi. Qirg‘izlar turkiy xalqlar jumlasiga kirib, etnik jihatdan qozoqlarga yaqin hisoblanadi. Qirg‘iz musiqasida keng ma’nodagi qo‘shiq janri “Ir” deb nomlanadi. Jumladan, bu shakl turli xil shart-

sharoitlar va marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan aytimlarda keng qo‘llaniladi.

Bunda mehnat, turli xil marosim, maishiy va lirik kayfiyatdagi hamda nasihatombir-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan qo‘shiq larni ham aytib o‘tish lozim. Qirg‘iz xalq musiqasida dostonchilik birmuncha qadimiyligi bilan ajralib turadi. Mazmun jihatidan esa ko‘proq afsonaviy qahramonlik mavzulariga tayanadi. Bunda afsonaviy xalq qahramoni “Manas” haqidagi doston turkumi juda mashhur. Shular qatorida “Qizjibek” dostoni xalq orasida keng ommalashgan.



Chanqo‘biz



Do‘mbira



Qo‘biz

Doston ijrochilarini, asosan, “aqim” va aksariyat hollarda “manaschi” deb ham atashadi. Musiqiy cholg‘ular doirasi unchalik keng emas. Bu yerda, asosan, chertib chalinadigan “qo‘muz”, kamonli cholg‘u “qilq”, damli cholg‘ular “cho‘o‘r” va “temir qo‘muz” (vorgan) nomli musiqiy cholg‘ular keng qo‘llaniladi. Ularning kompozitorlik ijodiyoti ham milliy yo‘nalish bo‘yicha o‘z rivojini davom ettirib kelmoqda.

⊙ Qozoq va qirg‘iz xalq musiqasidan namunalar tinglang.

♫ Quyidagi kuyni dirijorlik qilib, notaga qarab kuylang:



- ?! 1. Qozoq xalqi ma'naviy madaniyatining ko'p jihatlari bilan qaysi xalqqa yaqin keladi?
 2. Xalq musiqasi qozoq xalqi an'analari bilan sug'orilgan holda qanday janrlar ko'rinishida shakllangan?
 3. Chuqur tarixga ega bo'lgan "doston" janri va musiqiy cholg'ulari haqida gapirib bering. 4. Qirg'iz xalqi musiqasiga xos xususiyatlarni aytib bering.

9-Mavzu: SHARQ XALQLARI KASBIY MUSIQASINING O'XSHASHLIGI

Ma'lumki, jahon xalqlari azal-azaldan bir-birlari bilan siyosiy, ijtimoiy, savdo-sotiq va madaniy aloqada bo'lib kelgan. Har bir xalqning go'zal, mukammal va arziguli an'anasi, odati boshqa xalqlar an'anasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Buni biz hozirgi davrimizdagi yoshlarimiz orasida G'arb estrada uslubidagi musiqa janrlarining ommalashgani bilan solishtirsak to'g'ri bo'ladi. Demak, o'tmishdan xalqlarning turli hayotiy tizimlarida boshqa xalq an'anasiga o'xshagan jarayon muqarrar ekan. Biz shu omilni kasbiy musiqa san'ati tizimida tasavvur qilishga harakat qilamiz.

Odatda, musiqiy asarning “nomi”, “shakli”, “tovushqatori”, “matni” bo‘ladi. Asrlar davomida xalqlarning o‘zaro munosabatlarida esa nomlanishlar (iboralar), asarlarning tuzilish shakllari, so‘z tuzilishlari, musiqiy cholg‘ularda qiyosiy o‘xshatmalar ko‘p bo‘lgan. Maqomlarning nomlanishida, umuman olganda, bu tizim maqomot deyiladi. Ammo, Ozarbayjonda mug‘om, o‘zbek-tojik xalqlarida maqom deb yuritiladi. Ayrim xalqlarda o‘zgacha (hindlarda *raga*; mag‘rib, arablarda *nuba*) nomlanadigan bu musiqa turi kasbiy musiqaning eng yirik shaklidir. Sharq xalqlarining musiqiy cholg‘ularida ham juda ko‘p o‘xshashliklar mavjud. Jumladan, rubob sozi o‘tmishda Sharq xalqlarida “rebaba”, “rabab” nomlari bilan keng ommalashgan. Tanbur sozi ham hindlarda – tamera, arablarda – tambura, uyg‘urlarda – tombur deb yuritilib kelinadi. Urma cholg‘ular ko‘pgina Sharq xalqlarida daf, daff, dapp, def degan nomlarda uchragani kabi, damli sozlar ham nay, nyey, ney, noy; surnay esa zurna, surna, pomi deb qo‘llaniladi. Ushbu jarayon nafaqat ularning nomlarida, balki cholg‘u sozlarida ham yaqqol ko‘rinib turadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bular Sharq xalqlarining turmush tarzi, e’tiqodi, mashg‘uloti birligidan kelib chiqqan. Shu bois, Sharq xalqlari an’analarining ko‘p jihatlarida biz turli o‘xshashliklar borligining guvohi bo‘lamiz.




DO‘STLAR KUYLAYDI

Ibrohim Jiyonov she’ri

Xurshida Hasanova musiqasi

O‘rtacha tez

Eng - yo - rug' yul - duz - lar yog' - du - si -




da, Be - ar - mon e - di bo - la - li -




gim, Go' - zal man - zil - lar or - zu - si -



da Den - giz - day e - di sho'x - lik - la -



rim. O - lis o'l - ka - lar - ga suz -



gan oq yel - kan



bo - la - lik



Eng quv - noq qo' - shiq, kuy - lar Es -



gan sha - mol - lar qa - no - ti - da ke - la - di.

Bu quv - noq qo' - shiq, kuy - lar Bo-

la- li- gim - dan xo-ti-ra-dek qo - la - di.

Bir - ga - lik - da teng - dosh sir - dosh do'st - lar

kuy - lay - di.

Men bugun do'stlarim davrasida,
 Kelajak sari intilaman.
 Orzu-umidlar qanotida,
 Olam sirlarin o'rganaman.
 Shirin hayollarga o'xshab,
 Ketadi bolalik.

● *Sharq xalqlari musiqa merosidan namunalar tinglang.*

Quydagi kuyni dirijorlik qilib, notaga qarab kuylang:

- ?! 1. Mumtoz musiqada o‘xshashlik jihatlarini sanab o‘ting.
?.. 2. Maqomlar tizimida umumiy nomlanish qanday ataladi?
3. Sharq xalqlarining o‘xshash cholg‘ulari nomlarini aytib bering.



YAPON TEATRI



Yapon xalq teatrining o‘ziga xos tarixi mavjud. “Noo”, “Bugaku” va “Kabuki” deb nomlanuvchi an’anaviy yapon teatri shakllari yuzaga kelib, faoliyat olib borgan va rivojlangan. Xalq teatrining eng qadimiy shakli “Noo” deb atalib, IV asrda asosiy yapon an’anaviy teatrining ilk ko‘rinishini tashkil etgan. Uning ijodiy faoliyati ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Eng muhimi shundaki, uni oddiylikka asoslangan teatr yoki namoyish deyish mumkin. Teatr sahnasi har qanday dekoratsiyadan voz kechgan. Unda zarhal fonda sahna daraxti chizilgan katta ipak mato tortilgan. Shu bilan birga, bir necha savatchalarda yashil gullar qo‘yilgan. Bu uslub bir yarim asr mobaynida o‘zgarmay amalda bo‘lib kelgan.

Ko‘rinishi sekin, tantanali sur‘atda o‘tadi. Faqat aktyorlar tomonidan kerakli sur‘at harakati lozim bo‘lganda nog‘oralar ovozidan foydalaniladi. Teatrning barcha spektakllari pantomima uslubida qo‘yiladi. Ya’ni, aktyorlar ovozsiz o‘ynaydilar. Sujet asosan qadimiy ertak va rivoyatlarga, shu bilan birga, Budda hayoti tarixiga asoslanadi. Ayrim hollarda ko‘rinishda ertakchi ishtirok etadi. Uning tomoqdagi va so‘zlashuvga yaqin ijrosi aktyorlar harakatlariga mosdir. Ular yorqin kiyim kiyib rol ijro etadilar, vaziyat taqozo etsa qo‘rqinchli niqob kiyishadi. “Noo” teatrida faqat erkaklar o‘ynaydi. Ayollar rolini odatda bolalarga topshiradilar.

XII asrga kelib yapon teatrining “bugaku” shakli paydo bo‘ladi. Bunda, asosan, Budda dini marosimlari tasvirlanadi,

uning asosiy qismi raqqoslarning niqoblardagi harakatlari orqali ifodalanadi. Unda aktyorlar bilan birga nay, litavra, mis tarelkalar bilan musiqachilar ham ishtirok etishgan (ya'ni, "bugaku" ansambli). Aktyorlar Buddalar hayotidan hikoya qiluvchi sahnalarni ijro etishgan. Musiqiy cholg'ular esa "sehrjodu" xususiyatlariga qarab tanlangan.

"Kabuki" teatri Yaponiyada XVII asrning oxiriga kelib shakllangan. Uning oldingi teatlardan farqi, shahar madaniyatiga moslashganligidadir. "Kabuki" so'zining o'zi og'ishma ma'nosini beradi. Bunday nomni olishiga sabab, bu teatr oldingilaridan keskin farq qilgan. Lekin, sahna dekoratsiyalarida farq sezilmaydi. Binoning devorlari fon vazifasini bajaradi. "Kabuki" teatrida ham rollarni faqat erkaklar ijro etganlar. Ko'rinishlar raqslardan va ularni almashtirib turadigan dramatik sahnalardan tashkil topgan. Shu sababli "Kabuki" teatrining aktyorlari uchun nafaqat harakatlar, balki ularning ovoz imkoniyatlari ham katta ahamiyat kasb etgan.

Yapon xalq teatlari o'zining soddaligi, oddiyliigi va milliy xususiyatlarga sodiqligi bilan ajralib turadi.

NAZORAT ISHI

1. Samarqandda har ikki yilda o'tkaziladigan festival qachon boshlangan va u qanday nomlanadi?

- A) 2000-yil "Boysun bahori" B) 1997-yil "Sharq taronalari"
C) 2000-yil "Barhayot an'analar"

2. Bog'lama – qaysi xalqning milliy cholg'usi?

- A) Turk B) Qozoq C) Hind

3. Turkmanlarda "Alla" so'zi qanday ataladi?

- A) Alla B) Jiji C) Huvdi

4. Eron kasbiy musiqasining asosiy janrini toping.

- A) Dastgoh B) Raga C) Maqam

5. "Sharq taronalari" qanday festival?

- A) Xalqaro kino festival B) Xalqaro musiqa festivali
C) Bolalar festivali.

6. Qirg‘iz xalq musiqasida qo‘shiq janri qanday nomlanadi?

- A) Manas B) Ir C) Jirov

7. Sharq xalqlariga oid cholg‘u asboblari belgilang.

- A) Fortepiano, skripka, truba, arfa B) Balalayka, do‘mbira, garmon, fleyta C) Tanbur, ud, setor, rebab

8. Koto-cholg‘u asbobi qaysi xalqqa tegishli?

- A) Arab B) Yapon. C) Hind

9. Raga janri qaysi xalq musiqasida uchraydi?

- A) Turklarda B) Yaponlarda C) Hindlarda

10. Arablarning mashhur qo‘shiqchisining nomi?

- A) Ummu Kulsum B) Ayshvari C) Lata Mangeshkar

BOSHQOTIRMA

1	SH								
2	A								
3	R								
4	Q								
5	T								
6	A								
7	R								
8	O								
9	N								
10	A								
11	L								
12	A								
13	R								
14	I								

1. Eron (dastgohi) va Ozarbayjon (mug‘omi) mumtoz musiqasi.

2. Qozoq xalqi orasida, ikkita ijrochi tomonidan ijro etiladigan eng ommalashgan janr.

3. Hindlar maqomlarni qanday ataydilar.

4. Mashhur Qirg‘iz xalq dostoni.

5. Qadimiy Xitoy sulolasi.

6. Hind va Eronliklarning changsimon musiqiy cholg‘usi.

7. Turkman dostonlaridan biri.

8. Turk va Ozarbayjon xalq musiqiy cholg‘usi.

9. Sharq xalqlarining surnaysimon puflama cholg‘usi.

10. Yapon musiqali teatri.

11. Turkman xalq qo‘shig‘i.

12. Eron mumtoz musiqasining yetakchi janri.

13. O‘zbek va tojik mumtoz musiqasining bobokaloni.

14. “Qo‘shiq” qirg‘izlarda qanday ataladi.

IV CHORAK

YEVROPA MUMTOZ MUSIQASI HAQIDA TUSHUNCHA

1-Mavzu: YEVROPA MUMTOZ MUSIQASI

Yevropa mumtoz musiqasining opera, kantata, oratoriya, balet, simfoniya, uvertyura, sonata kabi ko'p ovozli janrlariga xos ilk namunalari O'rta asrlarda paydo bo'lgan. Bu janrlarda asarlar yaratishning qoidalari ham o'sha davrlardan shakllanib, bugungi kunda yuksak rivojlanish cho'qqisiga ko'tarilgan.

Opera – XVI asrning oxirida Italiyada paydo bo'lgan. Uning tarixiy-qahramonlik, tarixiy-romantik, epik, afsonaviy, lirik, dramatik, hajviy mavzularda yozilgan turlari mavjud bo'lib, mumtoz namunaviy turlari J.Verdi, X.Glyuk, V.Motsart kabi Yevropa kompozitorlari tomonidan yaratilgan.

Kantata va oratoriya janrlari esa opera bilan bir davrda paydo bo'lgan.

Ular yakkaxon, xor va orkestr uchun yozilgan ko'p qismli yirik asarlar hisoblanadi.

Balet – fransuzchadan olingan so'z bo'lib, “raqs tushaman, o'ynayman” degan ma'noni anglatadi. Fransuz kompozitori J.B.Lulli bu janrda ilk namunalarni yaratib, turli raqs kuy-laridan, o'lchovlaridan foydalangan. Balet janri rus musiqasi rivojida yuksaklarga ko'tarilgani barchaga ma'lum.

Simfoniya – XVIII asrda paydo bo'lgan, tez orada yirik va murakkab musiqa janri sifatida butun dunyoga tarqalgan. Betxoven, Motsart, Shubert, Chaykovskiy, Borodin kabi dunyo tan olgan kompozitorlar simfoniyaning mumtoz namunalari yaratganlar.

Yevropa mumtoz musiqasida “sonata”, “ballada”, “prelyudiya”, “kvartet” kabi o'nlab musiqa janrlari paydo bo'ldi. V.Motsart, I.Gaydn, L.Betxoven kabi kompozitorlar bu janrlarning yuksak namunalari yaratdilar.

Yevropa mumtoz musiqasida “organ” musiqasi alohida o‘rin tutadi. Havo yordamida chalinadigan bu klavishli yirik cholg‘u sozi uchun I.S.Bax, Gendel kabi kompozitorlar asar yozishgan. Bu janrdagi asarlar insoniyatga alohida kuch va zavq bag‘ishlaydi. Bu janrlar o‘zbek musiqasiga XX asrdan kirib kela boshladi.




ELIZAGA

Lyudvig van Betxoven musiqasi

Tezlashtirib

The image displays a musical score for piano, organized into three systems. Each system consists of a treble clef staff and a bass clef staff. The first system includes dynamic markings 'p' (piano) and 'pp' (pianissimo). The notation features various note values, rests, and phrasing slurs, indicating a complex melodic and harmonic structure.

 Kantata – yakka xonandalar, xor va orkestr uchun yozilgan yirik vokal-simfonik janr. Unda voqelik asosan xor, ariya, ansambl va cholg‘u musiqlarida tasvirlab beriladi.

Oratoriya – xuddi kantata kabi, yakka xonandalar, xor va simfonik orkestr uchun yozilgan ko‘p qismli musiqali asar. Asosan sahnada emas, balki konsert sharoitidagi ijroga mo‘ljallangan.

Kantata oratoriyadan asosan hajmi bilan, ya’ni kichikligi, mazmun jihatdan bir turliligi hamda dramatik rivojsizligi bilan farqlanadi.

Balet esa yirik musiqiy sahnaviy asar bo‘lib, bir qator musiqa janrlarini qamrab olgan sintkretik musiqiy janrdir. Baletda asosan badiiy asarlar musiqa vositasida raqs (xoreografiya) obrazlari bilan uyg‘unlikda ifodalanadi. Ya’ni dramatik mavzu raqs, imo-ishora, kiyimlar (liboslar), harakatlar va musiqa bilan ochib-ko‘rsatib beriladi.

- ?! 1. Ko'p ovozli musiqa janrlaridan qaysilarini bilasiz?
 2. XVI asrning oxirida Italiyada paydo bo'lgan operalar qanday mavzularga bag'ishlangan? Opera yaratgan qaysi Yevropa kompozitorlarini bilasiz?
 3. Kantata, oratoriya va balet janrlari haqida gapirib bering.
 4. Simfoniya qachon paydo bo'lgan va simfoniya yaratgan qaysi kompozitorni bilasiz?



KIM EPCHIL-U, KIM CHAQQON

Anvar Obidjon she'ri

Avaz Mansurov musiqasi

f **Allegro** ♩ = 148

Sen o - hu - san, men jay-ron, kim ep-chi-lu, kim chaq-

4 qon? Sen, o-hu san, men jay - ron, kim ep-chi-lu, kim

8 **mf** chaq - qon? Bo-tir-bek-mi, yo Ray-xon? No-dir-bek-mi, yo Oy-xon?

11 **f** Kim ep-chi-lu, kim chaq qon? Ep-chil bo-la

14 may- don - da quv-nar chaq-qon qiz bi-lan.

17

 Dav - ra - miz- ga mar- ha - bo, o'y-na, -o'y-na biz bi - lan

20

 O'y-na, o'y-na biz bi-lan (bo'l...)

2 24

 (miz...) Sho-don, quv-noq o'y - nay - miz...

27

 (Chapak...) Xey!

Naqarot:

Sen ohusan, men jayron
 Kim epchil-u kim chaqqon?
 Botirbekmi, yo Rayxon,
 Nodirbekmi, yo Oyxon,
 Kim epchil-u kim chaqqon?!

Epchil bola maydonda,
 Quvnaq chaqqon qiz bilan.
 Davramizga marhabo,
 O'yna, o'yna biz bilan,
 O'yna, o'yna biz bilan...



Naqarot.

Epchil bo'lu chaqqon bo'l,
 Otash bo'lu vulqon bo'l.
 Barchinoydek shaddod qiz,
 Alpomishdek polvon bo'l,
 Alpomishdek polvon bo'l...

Naqarot.

Tortishmachoq o'ynaymiz,
 Bekinmachoq o'ynaymiz.
 Yurtga shodlik yog'dirib,
 Shodon, quvnoq o'ynaymiz,
 Shodon, quvnoq o'ynaymiz...

2-Mamzu: VOLFGANG AMADEY MOTSART



Wolfgang Amadey Motsart
(1756–1791)

Chet el kompozitorlari ichida dunyoga mashhur bo'lgan kompozitor avstriyalik Volfgang Amadey Motsartdir. U 1756-yil 27-yanvarda Avstriyaning kichik bir shaharchasi Zalsburgda saroy kompozitori va organchisi Leopold Motsart oilasida dunyoga kelgan. Motsartning musiqaga bo'lgan qobiliyati 3 yoshidan boshlab yaqqol sezila boshlagan. U soatlab klavesinda shug'ullanar, opasi, 8 yoshli Annaning chalgan kuy-larini bir eshitishida xatosiz aynan qaytarib chalib bera olar edi. Otasi Leopold o'g'lining musiqiy qobiliyatiga tan beradi va ular bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi. Volfgang Motsart 6 yoshida klavesinda yaxshi

chala oladigan darajaga erishadi va birinchi asarlarini, kichik hajmdagi pyesalarini yoza boshlaydi.

Yetti yoshga kirganda Motsart opasi Anna bilan Fransiya qirolining rezidensiyasi – Versal saroyida konsert beradi. Bolalar dastlab bir nechta murakkab asarlarni chalib, hammani hayratga solishadi. Keyin Volfgang Motsart skripkasini olib bir qancha asarlarni nihoyatda katta mahorat bilan chalib beradi. Opasi Anna unga klavesinda jo'r bo'ladi. Saroyga to'plangan mehmonlar Volfgang bilan qiziqib qolishadi. U birinchi marta ko'rayotgan notanish asarlarni notaga qarab to'xtamasdan, qiyomiga yetkazib ijro etadi. Berilgan musiqa bo'lagini ham xilma-xil bezaklar qo'shib turlicha chalib beradi. Mehmonlar chalgan musiqa bo'lagini ko'zi bog'liq holda hech qiynalmay chaladi.

Uning nomi boshqa shaharlarga ham yoyildi. U bir necha yil davomida Vena, Parij, London, Gana, Brussel, Jeneva kabi shaharlarda konsertlar berdi.

Otasi Leopold o'g'li Volfgangga musiqa yozish sirlarini hamda kompozitsiyani mukammal o'rgatib bordi. Natijada 8 yoshli Motsartning birinchi kitobi Parijda bosilib chiqdi. Motsart o'n ikki yoshida o'zining birinchi operasini yaratdi.

Volfgangning otasi bolalarining har tomonlama keng bilim olishiga sharoit yaratib berdi. Yosh Motsart chet tillari, tarix, geografiya, arifmetika va boshqa fanlardan ham yetarlicha bilim oldi. U Parij va London opera teatrlariga hamda simfonik orkestr konsertlariga tez-tez borib turardi.

Volfgang Motsartning Italiyaga otasi bilan qilgan safari uning hayotida o'chmas iz qoldiradi. Italiya shaharlarining boy arxitekturasi, dilbar tabiati, muzey va teatrlari yosh Motsartni yana-da ilhomlantirdi.

Bir necha oy davomida Motsart Italiyadagi eng yetuk musiqa nazariyotchisi Padre Martinidan kompozitorlik sirlarini o'rganadi. O'qish oxirida 14 yoshli Motsart sinovlardan oliy darajada o'tib, Boloniya Musiqa akademiyasining faxriy a'zosi diplomini olishga muvassar bo'ldi.

Yangi taassurot va yangi ilhomlar bilan u juda ko'plab musiqa asarlari yaratdi. "Figaroning uylanishi", "Sehrlil fleyta" operalari, ko'plab simfoniyalar, fortepiano uchun yozilgan sonatalar, konsertlar va xor uchun qo'shiqlar uning ijod mahsuli bo'ldi.

Ammo mahalliy aristokratlar Volfgang Amadey Motsartning buyuk iste'dodini yetarlicha qadrlashmadi. Unga xizmatkor, boy va badavlat kishilarning ko'nglini olish uchun xizmat qiluvchi oddiy bir qiziqchi sifatida qarashdi. Motsart esa musiqaga hayotiy zarurati bo'lgan muhim ish deb qarardi.

Motsart hammasi bo'lib 36 yil umr ko'rdi. Ammo shu qisqa davr ichida boy musiqiy meros qoldirdi. Butun dunyo kishilari uni buyuk kompozitor sifatida tan olishadi va uning asarlarini sevib tinglaydilar.

● *V.A.Motsartning asarlaridan yoki o'qituvchi ijrosida "Bahor sog'inchi" asarini tinglang.*



"Kim epchil-u, kim chaqqon" A. Obidjon she'ri, A. Mansurov musiqasi.

BAHOR SOG'INCHI

A. Overder she'ri
Safar Barnoyev tarjimasi

V.A. Motsart musiqasi



Kel- gin, ba-hor, qay- ta ya-na gul- la- sin qir- lar. Chul-
di- ra-gan ir- moq- lar-dan yay- ra- sin dil- lar, Qush-
lar so- zi, qu- yosh nu-ri Ko'z- la- ri- miz och- sin, o't-
loq- lar-da o'y- noq- lay-lik, zavq- la- ri- miz tosh-sin.

Sonata janri. Musiqa ijodiyotida uchraydigan muayyan janrlar orasida sonata janri o'zining ommabopligi bilan ajralib turadi. Sonata janri asosan cholg'u musiqasining musiqiy shakli hisoblanadi. Ko'proq fortepiano uchun yaratilgan asarlarda uchrashi amaliyotdan ma'lumdir.


Sonata janri – ikki mavzuning bir-biriga qarama-qarshilikdagi harakatiga asoslangan shakldir. Sonata janri – bosh mavzu bilan yondosh mavzularning alohida yangrashi, ularning bir tonallikda yangrashi va ularning qarama-qarshilikdagi uyg'unligini ifoda etilishi bilan xarakterlanadi. Uning asosiy uchraydigan shaklidagi tarkibiy qismlar quyidagilardan iboratdir: ekspozitsiya – rivojlov – repriza – koda.

- ?! 1. V.Motsart necha yoshidan boshlab musiqa asarlari yarata boshlagan?
! 2. Uning opasi Anna bilan bergan konsertlari haqida so'zlab bering.
3. Motsart o'zining birinchi operasini necha yoshida yaratgan?
4. Motsartning keng bilim olishi uchun qanday sharoitlar yaratilgan?
5. Motsartning Padre Martiniga shogird bo'lgani va Boloniya Musiqa akademiyasining faxriy a'zosi diplomini olganligi haqida so'zlab bering.

3-Mavzu: SIMFONIYA HAQIDA TUSHUNCHA

“Simfoniya” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “simfoniya”, ya’ni ohangdoshlik ma’nosini anglatadi. U bir qancha cholg‘u sozlarining birgalikda chalinishi natijasida hosil bo‘ladigan musiqa asari hisoblanadi.

Simfoniya, odatda, simfonik orkestrda ijro etiladi. Ba’zan unga xor va yakka xonandalar ham qo‘shiladi. Simfonik orkestrning qaysi cholg‘u asboblardan tashkil topishini siz yaxshi bilasiz. To‘liq simfonik orkestrlarning tarkibi taxminan quyidagicha tuzilgan bo‘ladi:



Simfoniya, odatda, to‘rt qismdan iborat bo‘ladi:

- I qism sonata allegro shaklida yoziladi;
- II qism lirik xarakterli, vazmin sur‘atda ijro etiladi;
- III qism menuet yoki skerso xarakterida yoziladi;
- IV qism rondo shaklida, ya’ni ayrim bir bo‘lak qo‘shiqning naqarotiga o‘xshab har gal qayta chalinadi. Bu qism, odatda, tantavor va jo‘shqin xarakterga ega bo‘ladi.

Simfoniya janrini nemis, chex, italyan, fransuz va avstriyalik kompozitorlar yaratishgan.

Simfoniyaning mumtoz turlarini Y.Gaydn, V.Motsart, P.Chaykovskiy, S.Prokofyev, D.Shostakovich kabi jahon tan olgan kompozitorlar yaratganlar. O'zbek musiqa ijodkorlari orasida M.Ashrafiy, I.Akbarov, T.Qurbonov, S.Jalil, M.Tojiyev, B.Lutfullayev, M.Bafoyev va boshqalar simfonik musiqa janri bo'yicha dastlabki asarlarni yaratgan kompozitorlar hisoblanadi.

Simfoniyaning sodda va hajm jihatidan kichkina bo'lgan turlari ham mavjud bo'lib, u simfoniatta deb ataladi. Bir qismdan iborat bo'lgan simfonik asar "simfonik poema" deyiladi.

● *V.A.Motsartning asarlaridan namuna tinglang. (40-simfoniya).*

V.MOTSART
(40-simfoniyasi)

O'rtacha tez

The image displays a musical score for the first movement of V. A. Mozart's 40th Symphony. It is written for piano and consists of three systems of music. The first system begins with a piano (p) dynamic marking. The right hand (treble clef) features a melodic line with eighth notes and rests, while the left hand (bass clef) provides a steady accompaniment of eighth notes. The second system continues this pattern. The third system concludes with a key signature change to A major, indicated by a sharp sign on the F line of the bass clef.



Simfoniyaning tarkibiy qismlari. Simfoniya – orkestr uchun mo‘ljallangan yirik musiqiy asar. Odatda, Simfoniya to‘rt qismli bo‘ladi: 1-qism – sonata allegrosi shaklida; 2-qism – uch qismli sonata yoki variatsiya shaklida; 3-qism – uch qismli (boshqa qismlarga nisbatan jonliroq ijro etiladi); 4-qism – rondo yoki variatsiya shaklida bo‘lib, tantanali yakunlovchi qism hisoblanadi.

Musiqqa ijodiyoti amaliyotida kompozitorlar 1 qismli va 2 qismli simfoniya ham yaratganlar.



- ?! 1. “Simfoniya” so‘ziga ta’rif bering.
 2. Simfonik orkestr qaysi cholg‘u sozlaridan tashkil topadi?
 3. Simfoniyaning tarkibiy qismlari haqida gapirib bering.
 4. Simfoniya janrida ijod qilgan mashhur kompozitorlardan kimlarni bilasiz?
 5. O‘zbek kompozitorlaridan kimlar simfoniya janrida ko‘proq ijod qilgan?



4-Mavzu: LYUDVIG VAN BETHOVEN

Lyudvig van Betxoven Germaniyaning Reyn daryosi bo‘yida joylashgan uncha katta bo‘lmagan Bonn shahrida 1770-yilda dunyoga keldi. Uning bobosi ham, otasi Iogann ham ko‘p yillar



Lyudvig van Betxoven
(1770 – 1827)

mobaynida saroy musiqachisi, ashulachi bo‘lib ishlashgan.

Betxovenlarning oilasi kambag‘alchilikda kun kechirardi.

Lyudvig juda ham kamgap, o‘z xayollari bilan yuradigan va odamovi bola edi. Ammo u musiqani jon-dilidan sevardi. Otasi bolalarining musiqachi bo‘lishini istamas edi. Shuning uchun ham yosh Lyudvig otasidan yashirincha skripka chalishni o‘rganib oldi.

O‘g‘lining skripka chalishini tasodifan eshitib qolgan Iogann avval o‘g‘lini nihoyatda qattiq koyidi, so‘ng Lyudvigning iste‘dodli ekanini sezib, undan “Ikkinchi Motsart” tayyorlamoqchi bo‘ldi va bu orqali boyib ketish payiga tushdi. Iogann yosh Lyudvigga klavesin va skripkada chalishni mashq qildiradi boshladi. Ammo uning olib borgan mashg‘ulotlari asosan gamma mashqlarini chaldirishdan iborat bo‘lar edi. Lyudvig eshitgan musiqalarini tezda mustaqil o‘rganib olar va anchagina asarlarni yod chaldirdi.

Oradan ma‘lum vaqt o‘tganidan so‘ng, otasi Iogann 1778-yilda 8 yoshli Lyudvigni jamoat oldiga birinchi bor chiqishini tashkil qiladi.

Konsert muvaffaqiyatli yakunlanadi va yosh iste‘dodli Lyudvig van Betxovenning nomi xalq ichida tezda mashhur bo‘lib ketadi. Endi unga maxsus o‘qituvchilar chaqira boshlashadi. Organchi Nefe uning asosiy o‘qituvchisi va qadrdon do‘sti bo‘lib qoldi.

Tez orada Lyudvig klavesin, skripka va organda yaxshi chala oladigan, asarlarni erkin improvizatsiya qilib (turlicha bezak va shakllarda) chaladigan bo‘ldi. Lyudvigni umumiy ta‘lim maktabiga berish uchun oilaning mablag‘i yetishmas edi. Juda katta mehnat evaziga Lyudvig maktabda o‘qitiladigan fanlarni mustaqil o‘rganib oldi. U, ayniqsa, nemis tili va adabiyotini, qadimgi faylasuflarning asarlarini mukammal bilar edi. Oilaning nochor

ahvoli Betxovenni yoshligidan ishlashga majbur qildi. U saroy kapellasida organ chaluvchining yordamchisi bo‘lib ishlay boshladi.


Lyudvig van Betxoven yoshligidan boshlab asarlar yozishga qattiq kirishdi. Ayniqsa, uning yaratgan sonatalari va simfoniyalari butun dunyoga mashhur bo‘lib ketdi.

Hayotining oxirgi yillarida Betxoven og‘ir qiyinchiliklarga duch keldi. Qizamiq kasali oqibatida Lyudvigning quloqlari eshitmay kar bo‘lib qolishi uning uchun dahshatli ko‘rgilik bo‘ldi.

Barcha qiyinchiliklarga qaramay, Betxoven hayotining oxirigacha musiqani tashlamadi. U o‘zidan juda ko‘plab nodir musiqa asarlari – sonatalar, pyesalar, simfoniya, oratoriya va “Fidelio” operasini qoldirdi.

U musiqaning buyuk qudratli kuch ekanligini bilgan holda: “Musiqqa inson qalbini chaqmoq kabi yoritmog‘i lozim!” – deya xitob qilgan edi.

● *L. Betxovenning “Qahramonlik” 3-simfoniyasidan parcha tinglang.*

 **Klassitsizm haqida.** Har tomonlama mukammallik kasb etgan ijod namunasi klassika deb yuritiladi. Klassitsizm so‘zi – lotin tilidan namunaviy degan ma‘noni anglatadi. Shu bois, adabiyotda, musiqada va boshqa sohalarda ushbu yo‘nalishga asoslanish, namunaviy asar yaratish doimo ijodkorlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Musiqaga XVII asrda kirib kelgan. Musiqadagi klassitsizmga xos tamoyillar – asarlardagi aniq g‘oya, mukammal kompozitsion tuzilish, janrlar orasidagi aniq chegarada namoyon bo‘lgan.

Musiqada klassik yo‘nalishda ijod etgan L. Betxoven, V. Motsart kabi kompozitorlarning asarlari o‘zining rosmana mukammalligi va namunaviyligi bilan ajralib turadi.

- ?! 1. Betxoven qachon va qayerda tug‘ilgan?
● 2. Lyudvig van Betxovenning ilk bolalik yillaridagi hayoti haqida so‘zlab bering.
3. Betxovenning birinchi konserti haqida gapirib bering.
4. Betxoven oilasining nochor ahvoli uning ijodiga ta‘siri haqida so‘zlab bering.

5-Mavzu: FRIDERIK SHOPEN



Friderik Shopen
(1810 – 1849)

Friderik Shopen jahon musiqa madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk polyak kompozitori. U fortepiano ijrochiligida eng yuqori mahoratga erishgan, o‘z zamonasining (virtuoz) mohir pianinochisi va polyak mumtoz musiqasining asoschisidir.

Kompozitor Polsha poytaxti Varshava atrofidagi hududlarning birida 1810-yili tavallud topgan. Buyuk iste’dodga ega bo‘lgan Friderik musiqa bilan juda erta shug‘ullana boshladi va birinchi asarini 7 yoshida bastaladi. 8 yoshidan esa oila – jamoa yig‘inlarida pianinochi sifatida konsertlarda qatnashdi.

1830-yili Friderik o‘z ijrochilik mahoratini oshirish maqsadida Parijga boradi va taqdir taqozosi bilan umrining oxirigacha yurtiga qaytmaydi. Chunki, 1831-yili Polshada inqilobiy kurashga chek qo‘yiladi. Vatan mustaqilligi uchun kurashganlarni qatl qilishadi. Friderik esa, o‘z davrida mustaqillik uchun kurashganlar safida bo‘lgan edi. Shu bois, uning ijodiy faoliyati yurtidan uzoqda o‘tdi. U 1849-yili Parijda vafot etdi.

F.Shopen ijodida fortepiano musiqasi asosiy o‘rinni egallaydi. Uning ijodidagi o‘ziga xoslik asarlarining milliyligi, g‘oyaviy obrazlilik va his-tuyg‘ularga boy nozik ruhiyatida namoyon bo‘ladi.


Shopen ijodi jahon musiqasiga, xususan, fortepiano musiqasi rivojiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. U, asosan, fortepiano uchun asarlar yaratgan va ular “Oltin meros”ning eng yorqin namunalariga aylangan. Har bir pianinochi uning asarlaridan ijro etishni faxr deb biladi. Shopen asarlari: 2 ta konsert, fortepiano uchun: 4 ta pyesa, 3 ta sonata, 4 ta ballada, 76 ta polonez, 60 ga yaqin mazurkalar, 17 ta vals, 27 ta etyud va boshqalardan iborat.

● *Friderik Shopen asarlaridan namuna tinglang.*

MAZURKA


F. Shopen musiqasi

Juda tez

 Quyidagi kuyni notaga qarab kuylang:



- ?! 1. Friderik Shopen – mohir pianinochi.
 .. 2. Shopen necha yoshidan musiqa yoza boshlagan?
 3. Shopen ijodiga xos xususiyat haqida so‘zlab bering.
 4. Shopen qaysi janrlar bo‘yicha boy ijodiy meros qoldirgan?



DIYORIM

Rustam Xo‘jayev she’ri


Nadim Norxo‘jayev musiqasi



Tong uy-g‘o-nar qo‘y-ning-dayay-rab, Sen-ga do-im



par-vo-na qu-yosh. Qut-lar bu- gun ta-san-no ay-lab,



Ko‘k-si-da qo‘l, do‘sti yor qar-dosh. Mus-ta-qil yurt, tinch-lik shi-o

ring, Of-tob mi-sol cheh-rang di-yo- rim, di- yo-

rim. Cheh-rang di- yo- rim.

Of- tob mi- sol cheh-rang di-yo- rim.

Millatlaring bo'ldi mushtarak,
 Yashar inoq bir jon-u bir tan.
 Buyuk ayyom bo'lsin muborak,
 Ey ko'hna yurt, hur O'zbekiston.

6-7-Mavzu: **MIXAIL IVANOVICH GLINKA**
HAYOTI VA IJODI. YEVROPA MUSIQASINING
JAHON XALQLARI ORASIDA OMMALASHISHI.

Rus mumtoz musiqasining asoschisi Mixail Ivanovich Glinka 1804-yil 20-mayda Smolensk guberniyasining Novospass qishlog'ida dunyoga keldi. Glinkaning musiqaga bo'lgan qiziqishi yoshligidanoq namoyon bo'ldi. U dehqonlar orkestri ijro etgan kuylarni tinglab, skripka, fleyta va fortepiano chalishni o'rgana boshladi. Shu bilan bir qatorda chet tillarini, adabiyot va tarixni, rasm chizishni o'rgandi.

1817-yilda Glinka Peterburgga ko'chib keladi va bu yerda Blagorodniy pansionida tahsil oladi. 1822-yilda pansionni bitirgandan keyin musiqaga ko'proq e'tibor bera boshlaydi. Glinka ijodining shakllanishiga Pushkin, Griboyedov, Jukovskiylar bilan bo'lgan muloqotlari juda katta ta'sir ko'rsatadi. 20-yillarning oxiriga kelib Glinka bir qator asarlar yaratadi. Musiqa san'atini yana-da mukammal egallash maqsadida Germaniya va



Mixail Glinka
(1804–1857)

Italiyaga safarga boradi. Bu yerlarda Glinka shaharlar hayoti, madaniyati, yirik kompozitorlari bilan tanishadi, zamonaviy musiqani o'rganadi. Italiyada bir qator yorqin asarlarini yaratadi. 1834-yilda Rossiyaga qaytib "Ivan Susanin" operasini yoza boshlaydi. Uning birinchi ijrosi 1836-yil 27-noyabrda bo'lib o'tib, katta muvaffaqiyat qozondi. Shu yillari "Ruslan va Lyudmila" operasini yozishga kirishadi. 1844-yilda Glinka Parijga boradi. Berlioz bilan uchrashadi va u bilan yaqin mu-loqotda bo'ladi. Berliozning nova-torligini Glinka yuqori baholaydi. 1845-yilda esa Glinka Ispaniyaga borib, katta ijodiy yutuqlarga erishadi. 1846-yili Madridda "Aragonskaya xota" fantaziyasini yaratadi. Hayotining oxirgi 9 yili davomida "Kamarinskaya" simfonik fantaziyasini, kichik pyesalar, romanslar yaratadi, oldin yaratgan asarlarini qayta ishlab chiqadi.

1857-yil 3-fevralda Mixail Ivanovich Glinka Berlinda vafot etadi.

● *M.Glinka asarlaridan tanlab, namuna tinglang.*

KAMARINSKAYA
(*Simfonik fantaziya*)

Mixail Ivanovich Glinka musiqasi

O'rtacha tez

sf *mf*

The image displays three systems of musical notation for piano. The first system features a treble clef staff with a melodic line consisting of eighth and sixteenth notes, and a bass clef staff with a sustained low note. The second and third systems show more complex melodic and harmonic developments in both staves. Dynamics include *pp* and *p*.

Yevropa musiqasining jahon xalqlari orasida ommalashi-shi. Yevropa musiqasi shakllanishi nuqtayi nazaridan juda katta bosqichni bosib oʻtgan va hozirga qadar rivojlanib kelmoqda. Uning jahon xalqlari musiqasiga boʻlgan taʼsiri nihoyatda ulkan boʻlib, jumladan, bu holni Hamdoʻstlik Mamlakatlari xalqlari musiqa madaniyati misolida koʻrish mumkin. Bu jarayon avvalambor rus musiqasiga oʻtib rivojlanib borgan, soʻngra boshqa xalqlar qatorida qirgʻiz, qozoq, tojik, xususan, oʻzbek musiqasiga chuqur taʼsir koʻrsatib, oʻziga xos yoʻnalishda shakllana borgan.

Yevropa musiqasi anʼanalarining oʻzbek musiqasiga kirib kelishi XX asr boshlarida yuz bergan. Shu jumladan, oʻzbek kompozitorlari ijodiyotida bu jarayonning taʼsiri oʻzgacha tus olib, butun asr davomida rivojlangan va oʻzining yuksak choʻqqisiga yetgan. Bu jarayonlar toʻngʻich avlod kompozitorlari V.Uspenskiy, S.Kozlovskiy, S.Vasilenko, R.Glierlarning T.Sodi-

qov, M.Ashrafiy, I.Akbarov, T.Jalilov, M.Burhonov bilan bo‘lgan ijodiy hamkorliklaridan boshlangan. Natijada o‘zbek musiqasida Yevropaga xos bo‘lgan kamer-cholg‘u, opera, simfonik asarlar vujudga keldi. Xuddi shunday jarayonni biz boshqa O‘rta Osiyo mamlakatlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

● *Yevropa mumtoz musiqalaridan tanlab, namuna tinglang.*

♩ To‘rg‘ay kuyini notaga qarab kuylang:

TO‘RG‘AY I



- ?! 1. M.I.Glinkada musiqaga bo‘lgan ishtiyoqning uyg‘onishida dehqonlar orkestrining roli nimada?
 2. “Ruslan va Lyudmila” operasining yaratilishi haqida gapirib bering.
 3. “Kamarinskaya” simfonik fantaziyasining yaratilishi haqida so‘zlab bering.
 4. O‘rta Osiyo xalqlari musiqasida yevropacha janrdagi asarlarning paydo bo‘lishi.
 5. Birinchi o‘zbek simfonik kompozitorlaridan kimlarni bilasiz?

NAZORAT ISHI

1. Wolfgang Amadey Motsart qaysi asrda yashab ijod etgan?

- A) XVIII asrda B) XIX asrda C) XX asrda

2. Bastakor Wolfgang Amadey Motsartning vatani qayer?

- A) Fransiya B) Xitoy C) Avstriya

3. Lyudvig van Betxovenning operasini belgilang.

- A) “Fidelio” B) “Sehrli nay” C) “Karmen”

4. Friderik Shopen qaysi millat bastakori?

- A) Fransuz B) Polyak C) Yapon


5. Mixail Ivanovich Glinka qaysi millat bastakori?

- A) O‘zbek B) Nemis C) Rus

6. Fortepiano bu –

- A) Torli klavshli urma cholg‘u B) Torli cholg‘u
C) Urma zarbli cholg‘u

BOSHQOTIRMA



1. Betxovenning ismi.
2. Butun jahonda keng ommalashgan musiqa cholg‘usi.
3. To‘rtta cholg‘udan tashkil topgan ansambl qanday ataladi.
4. 40 tadan ortiq simfoniya yaratgan nemis kompozitori.
5. “Elizaga” asarini yozgan nemis kompozitori.
6. Mashhur Polshalik pianinochi va kompozitor.
7. Buyuk rus kompozitori.
8. Kasbiy musiqa yana qaysi nom bilan ataladi.
9. Polsha xalq raqslaridan biri.
10. Yirik musiqiy janr.
11. Betxovenning mashhur pyesasi.
12. Betxovenning 3- simfoniyasi qanday nomlangan.
13. Kompozitorlik ijodiyoti janrlaridan biri.
14. Kompozitorlik ijodiyotidan keng o‘rin olgan cholg‘u janrlaridan biri.
15. Rus kompozitori M.Glinkaning simfonik fantaziyasining nomi.

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi	4

I CHORAK

Mumtoz musiqa haqida tushuncha

<i>1-Mavzu:</i> Mumtoz musiqa	6
<i>2-Mavzu:</i> Mumtoz kuylar	7
<i>3-Mavzu:</i> Mumtoz ashula	10
<i>4-Mavzu:</i> Shashmaqom – mumtoz musiqamiz asosi.....	12
<i>5-Mavzu:</i> Farg‘ona – Toshkent vohasining mumtoz musiqasi. Katta ashula ..	15
<i>6-Mavzu:</i> Xorazm vohasining mumtoz musiqasi.....	17
<i>7-Mavzu:</i> Surxondaryo va Qashqadaryo mumtoz musiqasi	20
<i>8-Mavzu:</i> Mumtoz musiqaning madaniyatimizdagi o‘rni	23
Nazorat ishi	24
Boshqotirma.....	25

II CHORAK

Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari

<i>1-Mavzu:</i> O‘zbek zamonaviy musiqasi	26
<i>2-Mavzu:</i> Zamonaviy musiqa	29
<i>3-4-Mavzu:</i> Folklor musiqasi va dostonchilik san’ati.....	30
<i>5-Mavzu:</i> Estrada musiqasi. B. Zokirov va “Yalla” guruhi.....	35
<i>6-Mavzu:</i> Musiqa san’ati bo‘yicha ko‘rik-tanlov va festivallari.....	39
Nazorat ishi	40
Boshqotirma.....	41

III CHORAK

Sharq xalqlari mumtoz musiqasi

<i>1-Mavzu:</i> Sharq taronalari	42
<i>2-Mavzu:</i> Turk va ozarbayjon xalqlarining mumtoz musiqasi	45
<i>3-Mavzu:</i> Turkman xalq mumtoz musiqasi	46
<i>4-Mavzu:</i> Eron va arab xalq mumtoz musiqasi	49
<i>5-Mavzu:</i> Xitoy va uyg‘ur xalq mumtoz musiqasi	52
<i>6-Mavzu:</i> Yapon va Hind mumtoz musiqasi	57
<i>7-8-Mavzu:</i> Qozoq va qirg‘iz xalq mumtoz musiqasi	57
<i>9-Mavzu:</i> Sharq xalqlari kasbiy musiqasining o‘xshashligi	59

Nazorat ishi	64
Boshqotirma.....	65

IV CHORAK

Yevropa mumtoz musiqasi haqida tushuncha

1-Mavzu: Yevropa mumtoz musiqasi	66
2-Mavzu: Wolfgang Amadey Motsart	71
3-Mavzu: Simfoniya haqida tushuncha.....	74
4-Mavzu: Lyudvig van Betxoven	76
5-Mavzu: Friderik Shopen	79
6-7-Mavzu: Mixail Ivanovich Glinka hayoti va ijodi. Yevropa musiqasining jahon xalqlari orasida ommalashishi	82
Nazorat ishi	85
Boshqotirma	86

Soib Begmatov

MUSIQA

6-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 6-nashri

Muharrir *Abralova Munojot*
Musavvir *Shuxrat Mirfayozov*
Texnik muharrir *Yekaterina Koryagina*
Musahhah *Fotima Ortigova*
Kompyuterda sahifalovchi *Bobur Tuxtarov*

Nashr. lits.№ 290. 04.11.2016. Bosishga 2017-yil 1-iyunda ruxsat etildi.
Bichimi 70x90 $\frac{1}{16}$. Kegli 11. Tayms garnitura. Ofset bosma.
7,02 shartli bosma toboq. 6,0 nashr tobog'i.
Adadi 532370 nusxa. raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.